

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON DAVLAT SAN`AT VA MADANIYAT INSTITUTI
KINO, TELEVIDENIYE VA RADIO SAN`AT FAKULTETI

“San`atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrası

MATBUOTDA MUHARRIR MAHORATINING
ASOSLARI

“5220100-Jurnalistika (san`atshunoslik - jurnalistikasi)”

4-kurs bo`limi bitiruvchisi Taxirova Munisaning
bitiruv malakaviy ishi

Kurs rahbari:

San`atshunoslik
fanlari doktori, professor
M.Hamidova

Ilmiy rahbar:

“San`atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrası dotsenti T.M.Qozoqboyev

“ ” _____ 2015 yil

“ ” _____ 2015 yil

Toshkent - 2015

Mundarija

I. Kirish.....	3
II. Asosiy qism	
1.bob Matbuot – matniy muloqot turi	
1.1 Matbuot tili va uslubi.....	8
1.2 Adabiy tahrir mantiqiy asoslari - muharrir mahoratining bosh omili.....	21
2.bob Muharrir mahorati	
2.1 Tahrirning nazariy asosi.....	28
2.2 Matn tahlili va tahririda muharrir mas`uliyati.....	40
III. Xulosa.....	59
IV. Adabiyotlar ro`yxati.....	63

Kirish

“Bugungi globallashuv asrida har qaysi inson, har qaysi yer egasining o‘z malakasi va saviyasini oshirishi uchun qandaydir mafkuraviy to‘siq va cheklashlash qolmaganini barchamiz yaxshi bilamiz. Gap faqat o‘qib – o‘rganishdan izlanishdan tortinmaslik, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, bu yo‘lni qat‘iyat bilan ilgari lab borishga bog‘liq”.

Islom Karimov

Hamon XXI asr Xalqaro Hamjamiyat – Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan axborot asri, deb tan olingan ekan, demak bu asrda axboroting tarqalishida hech bir na tabiiy, na sun‘iy vositalar to‘siq bo‘la olmaydi. Endilikda axborotga davlat chegaralari ham pisand emas. Dunyoning istalgan hududiga to‘siqsiz kirib boraveradi. Jahon hamjamiyati tarkibidagi xalqlar, ularning nufusi xoh katta, xoh kich bo‘lsin bu ko‘rgilikdan chetda qolmaydi. Xo‘sh, axborot globallashuvi jarayoni xalqlar uchun ijobiy jarayonmi yoki...?

Buni aniq ijobiy yohud salbiy deb bo‘lmaydi, uning ijobiy tomonlari ham bor, shu bilan birga salbiy tomonlari ham yo‘q emas. Demak, bu masalada taroziga toshni o‘ylab qo‘yish kerak bo‘ladi.

Prezident Islom Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” (1997) kitobida yangi ming yillik O‘zbekiston uchun, o‘zbek xalqi uchun bo‘lishligi, qanday muammolarga duch kelishi va ularning yechimi qanday bo‘lishligini chuqur tahlil etib, qanday yo‘l tutishimizni aniq ko‘rsatib beradi.

“ Yangi ming yillikka yo‘l ochib borar ekanmiz, hammaga do‘stlik va hamkorlik qo‘lini cho‘zamiz. Havfsizlik, barqarorlik va sobitqadamlik, rivojlanish degan so‘zlar buning ramzidir. Chunki, aynan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor yaratadi” .

Mustaqillik sharofati tufayli matbuot mamlakatimiz, xalqimiz hayotidagi ulkan bunyodkorlik ishlarining haqqoniy solnomasi, milliy mafkuramiz targ'ibotchisi maqomini oldi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan olamshumul yuksalishlar matbuotchilar oldiga ulkan vazifalar qo'ymoqda. Matbuotimizning "Kecha"gi va "Bugun" gi holati, faoliyatini kuzatish asnosida demokratik islohatlarning yaratib berilgan va berilayotgan huquqiy imkoniyatlarining nechog'lik katta ahamiyat kasb etayotganligini ham anglab yetamiz.

Biz matbuotimizning "Bugun"gi faoliyatidagi yutuqlar va muammoli jihatlarni tahlil etayotganimizda, ushbu faoliyatning mashaqqatini zalvorli mas'uliyatini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak.

Turli nashrlar sahifalarida biz qiziqib o'qiydigan, teleradio orqali ko'plab, tinglab boradigan har qanday axborot sermashaqqat mehnat evaziga silliqlashib, mazmunli, chiroyli ifoda orqali, ommaviy axborot materialini sifatida yetib kelishini ko'pincha o'ylab ham ko'rmaymiz.

Agar jahon axborot kengliklaridagi globallashtirish dunyo xalqlari, xususan, bizning xalqimiz uchun ana shu poydevorni yaratishga ko'maklashsa, unda bu jarayon barcha xalqlar taqdirida ham ijobiy ahamiyat kasb etadi. Zero, XXI asrda jahon miqyosidagi, ayrim aholi alohida olingan bir xalq miqyosidagi ijtimoiy taraqqiyot, shu jumladan ma'naviy yuksalish axborot ko'lami bilan belgilanadi. Axborot qanchali ko'p olinsa, saralansa, qayta ishlansa va tarqatilsa shu jamiyat istiqboli shunchali porloq bo'ladi. Demak, axborot ayirboshlash jarayonining sur'ati istiqbol taqdirini hal etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Jahon axborot makonida ommaviy axborot tarqatuvchi vositalar bugungi kunda asosan quyidagilardan iborat:

Noshirlik mahsulotlari- adabiy asarlar, plakatlar va b.

Matbuot – gazeta, jurnal va b.

Radio

Televideniye

Internet

Bularning har biri axborot vositasi sifatida o'z tili, uslubi, maqsad vazifasi, auditoriyasiga ega.

Ommaga axborot yetkazish maqsadini amalga oshirar ekan, ular nutqning turli ko'rinishlari va o'ziga hos usullardan foydalanadi. Masalan: radio nutqining og'zaki shakli va tovushlardan – musiqa shovqini va boshqalardan.

Televideniya og'zaki va yozma nutqdan ovoz va tasvirlardan. Internet ham yozma ham og'zaki, tasvir, ovoz, shuningdek verbal bo'lmagan xilma - xil imkoniyatlardan. Bular orasida adabiy asarlar, matbuot asosan yozma nutqdan, shuningdek qaysidur darajada surat, tasvirlardan foydalanadi. Ana shu xususiyatga ko'ra matbuot ommaviy axborot vositalari orasida matniy muloqot turi hisoblanadi. Biz mazkur ishimizda ommaviy axborot vositalaridan bo'lmush matbuot materiallari tahlili va tahriri shuningdek matn ustida ishlovchi muharrir mahorati hamda mas'uliyati haqida fikr yuritamiz.

Tadqiqot ishining dolzarbligi

Ishda matbuot materiallarining tahriri bilan shug'ullanuvchi jurnalist –muharrir mahoratining asoslari birinchi marta tadqiq etilmoqda.

Ishning ilmiy yangiligi

Mazkur mavzu bo'yicha ayrim ilmiy maqolalar e'lon qilingan. Xalqaro va mahalliy miqyosdagi konferensiyalarda ilmiy maruzalar qilingan va ularda biz tadqiq etayotgan mavzuning ayrim jihatlarigina yoritilgan. Masalan: H. Do'stmuhammad “Zamonaviy matbuotshunoslikning tarixiy ildizlari”; A.N.Nurmatov “ Globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining o'rni”; Z.T. Tohirov “ Axborot globallashuvi va milliy ma'naviyat ”; N.A. Mirzayeva “Axborot globallashuvi sharoitida matbuotning ma'naviy ruhiy qiyofasi ”; Sh. F. Mo'minova “ Этика журналиста и язык журналиста” va b.

Bu mavzu bizning ishimizda ilk bora malakaviy bitiruv ishi darajasida o'rganildi. Bu uning ilmiy yangiligini ko'rsatadi.

Ishning maqsad va vazifasi

Matbuotda e'lon qilinayotgan materiallarni tahriri bilan shug'ullanuvchi muharrirlar mahoratining nazariy asoslarini o'rganish ishning maqsadi hisoblanadi. Maqsadni amalga oshirish uchun quydagi vazifalar belgilandi.

1. Jurnalistik asarni sifatli tahririni ta'minlash uchun qanday nazariy bilimlarga ega bo'lishini o'rganish.
2. Gazeta materiallarini til, uslubga ko'ra va janriy jihatdan tahlil etish.
3. Tahrir jarayonida yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarni ko'rsatish va mohiyatini ochib berish.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti

Tadqiqot ishimizning ob'ekti bo'lib respublikamizda nashr etilayotgan gazetalar hisoblanadi. Mazkur gazetalar materiallaini adabiy til, adabiy til uslubiyati va adabiy tahrir fani nuqtai nazaridan tahlil etish va ularni baholash ishning predmetini tashkil etadi.

Ishning nazariy va metodologik asosi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy jurnalistika haqidagi farmon, qarorlari va "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch", "O'zbekistan XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palata va senatining qo'shma majlisi (2010 yil 12 noyabr) dagi maruzasida axborot sohasini isloh qilish, so'z hamda axborot erkinligini ta'minlash xususidagi konsepsiya, jurnalistika ta'limi va amaliyotida faoliyat olib borgan va olib borayotgan olimlar hamda mataxasislarning ilmiy asarlari, o'quv adabiyoti va matbuotga oid ilmiy maqolalari ishning nazariy asosi hisoblanadi.

Tadqiqot ishida qiyosiy tahlil, sintez, xususiyatdan umumiyga, umumiydan xususiyatga o'tish usullaridan foydalanildi. Ayniyat ziddiyatsizlik, uchinchi istisno va yetarli asos singari adabiy tahrir qonuniyatlariga asoslanadi.

Ishning amaliy ahamiyati

Tadqiqot ishi bo'yicha jurnalistika ta'limida matbuot matni tahlili va tahriri bo'yicha maxsus kurs o'qish, kurs ishi yozish malakaviy bitiruv ishlari va mustaqil ish bajarishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari matbuot sohasida faoliyat olib boruvchi jurnalistlar jurnalistik asar matnini tahrirdan chiqarishlari uchun ham ilmiy ham amaliy jihatdan qimmatga ega.

Ishning tarkibiy tuzilishi

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, (har bir bob ikki paragrafdan iborat), xulosa va adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Ishning **kirish** qismida matbuotning axborot globallasuvi sharoitidagi o'rni va ahamiyatini, matbuot materiallarining tahriri mas'uliyatli vazifa ekanligi, matn tahriri bilan shug'ullanuvchi muharrir nazariy jihatdan yuqori saviyaga ega bo'lishligi ta'kidlanadi. Shuningdek mavzuning dolzarbligi ilmiy yangiligi tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmeti, nazariy hamda metodologik asoslari amaliy qimmatini qisqacha bayon etiladi.

Ishning **birinchi bobi** “ Matbuot matniy muloqot turi” deb nomlanadi. U ikki paragrafdan iborat bo'lib birinchi paragrafdan “ Matbuot tili va uslubi” haqida to'xtaladi. Bunda matbuotning adabiy til materiallariga, adabiy til uslubiylatining matbuot uchun hos bo'lgan ommaviy siyosiy, ilmiy ommabop va badiiy publisistik kabi turlaridan foydalanish uchun puxta nazariy bilimga ega bo'lish haqida so'z boradi. Ikkinchi paragrafdan esa matn tahririda mantiqiy tahlil usulidan foydalanish ko'rsatiladi.

Ikkinchi bob “ Muharrir mahorati” deb atalgan. Uning birinchi paragrafi matbuot matni tahririda nimalarga alohida e'tibor qaratilishi hususida so'z boradi va gazeta materiallariga xos bo'lgan hususiyatlar bayon etiladi. Ikkinchi paragrafdan matn tahriri bilan shug'ullanuvchi muharrirning jurnalistik asarni e'lon qilish uchun tayyorlashga bo'lgan mas'uliyati, ya'ni material gazeta tili, uslubi publisistik janrlar bilan mazmun mundariyasi muayyan gazetaning maqsad vazifasi bilan uyg'unligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Ishning **xulosa** qismida tadqiqot natijasida olingan umumiy ilmiy xulosaviy fikrlar bayon etiladi va ayrim taklif va tavsiyalar beriladi.

I.BOB

Matbuot matniy muloqot turi

1.1 Matbuot tili va uslubi

“Matbuotning publisistika uslubini tavsiflash tildagi boshqa har qanday uslubni tavsiflash singari ancha murakkab hisoblanadi”.¹

Ommaviy axborot vositalari sirasiga kiradigan matbuot o`zining ta`sirchanligi, qayta ishlash imkoniyatiga ega ekanligi, arzonligi nuqtai nazaridan eng sermahsul vosita hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatidagi, qolaversa, respublikamizda bo`layotgan o`zgarishlar ma`lum darajada matbuotda o`z ifodasini topadi. Ayni shu jihatdan matbuot turlari hisoblangan gazeta va jurnallar bir – biridan farqlanadi. Har bir gazeta o`zining ko`lami, adadi va unda faoliyat ko`rsatayotgan jurnalistlarning saviyasi jihatidan o`ziga hos uslubga, yo`nalishga ega. Ayni shu jihati yo`nalishi uning maqsad va vazifasiga monandir.

Mustaqillikka erishilgandan so`ng matbuot nashrlari ko`paydi, ma`no va mohiyat jihatidan saviyasi oshdi. Agar Sobiq tuzum davrida o`zbek xalqi kommunistik mafkuraga xizmat qiladigan gazeta va jurnallarni o`qigan bo`lsa, istiqbol tufayli ijtimoiy hayotning barcha jabhasidagi yangiliklarni aks ettiruvchi “Oila va jamiyat”, “Hurriyat”, “Turkiston”, “Sanam”, “Hidoyat”, “Saodat” kabi gazeta va jurnallardan bahramand bo`ldi.

Matbuot hamma vaqt jamiyat manfaati uchun xizmat qilishi lozim. Matbuot, umuman, ommaviy axborot vositalari zamon bilan hamnafas bo`lishi, ma`lumotlarni o`z vaqtida ommaga yetkazib berishi darkor. O`zbekiston o`z mustaqilligiga erishgach, odamlarning fikri, tafakkuri, shuningdek, dunyoqarashi butunlay o`zgardi. Matbuot ham o`zida ana shu o`zgarishlarni aks ettirishi kerak. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, matbuot faoliyatida ko`zga tashlanib turgan qator kamchiliklar ham mavjud. Keyingi vaqtlarda matbuotda chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy – iqtisodiy va halqaro sharhlar kam berilayapti, bahs – munozaralar esa deyarli ko`rinmaydi. Ko`pgina nashrlar rasmiy xabarlarni chop etish bilan cheklanib qolyapti. Bundan tashqari, ayrim gazetalarda o`ziga xos qiyofa ko`zga tashlanmaydi. Ya`ni, bir – birining takrori bo`lib qolayotgan nashrlar hozirgi kunda talaygina. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun har bir jurnalistdan chuqur bilim va mas`uliyat talab qiladi.

¹ Солганик Д. Я. Общие особенности языка газеты.- Москва: МДУ, 1980.-С.23

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek , “ ... Yuksak marralarga erishish uchun keyingi yillarda mamlakatimizda qonunchilik sohasida va amaliy hayotimizda, ommaviy axborot vositalari va matbaachilikning erkin faoliyati uchun zarur kafolat va sharoit barpo etish , jurnalist kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ko'p ishlar qilinmoqda”.¹

O'zbekiston Respublikasining “ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonunni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqishga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Ana shu Qonun asosida ommaviy axborot vositalari rivojlanmoqda, saflari kengaymoqda. Shunday ekan, gazeta va jurnallarning rivojlanishi va yuksak saviyada bo'lishi uchun uning tili va uslubiga e'tibor berish kerak.

Matbuot tili radio va televideniye dan farqli o'laroq ommaviy muloqotning o'ziga xos shakli hisoblanadi. U madaniy matniy muloqot shaklida amal qilishi va keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallanganligi bilan ahamiyatlidir. Matniy muloqotning radio va telemuloqotga nisbatan ustunlik jihatlari ham mavjud. Ommaviy muloqot aslida bir martalik, radio va telemuloqotda bu xususiyat ustuvor. Gazetalar ham aslida bir o'qishlik, lekin ulardan ko'p martalab foydalanish mumkin. Mavzuni yoki uning muayyan bir qismini nisbatan to'liq yoritilishi, zarur darajada batafsil axborot uzatish nuqtai nazaridan matbuot ancha qulay vosita hisoblanadi.

Matbuot, radio va televideniye axborotni keng o'quvchilar ommasiga yetkazishning texnik vositasi sanaladi. Shulardan matbuot, ya'ni, gazeta va jurnallar yoshi, kasbi, sohasi, bilimi, ijtimoiy toyifasi jihatdan turli xil auditoriyaga mo'ljallanadi. Gazeta va jurnallarda ommaviy muloqot alohida ahamiyatga ega. Gazeta tili va uslubining o'ziga xosligini ham mana shu ommaviy muloqot belgilab beradi. Ommaviy muloqot uslubi gazeta va jurnal nutqini o'z ichiga olib , ular bilan birgalikda ommaga axborot yetkazib berishning bir butun tizimini tashkil etadi. Gazeta tili va uslubining o'ziga xosligi uning nutqiy tarkiblanishida , matniy qurilishida, axborotni yetkazib berish usuli va mavzuni yoritishida ko'rinadi.

¹ To'rtinchi hokimiyat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami.- T.: Mehnat, 2003. B.5

Gazeta va jurnallarda soʻz va ifodalarni huda – behuda takrorlash , ularni isrof qilish , ortiqchalik ancha cheklangandir. Zero, u tahrir jarayonidan oʻtgan boʻladi. Radio va televideniya soʻz isrofgarchiligiga koʻproq yoʻl qoʻyiladi. Adabiy tilning rivojlanishi va takomillashuvida, umumiy va uslubiy maromlarning barqarorlashuvida koʻproq yoʻl qoʻyiladi. Adabiy tilning rivojlanishi va takomillashuvida, umumiy va uslubiy maromlarning barqarorlashuvida matniy muloqotga daxldor boʻlgan matbuot tilining hissasi ham, obroʻyi ham nihoyatda katta. Bu jihatdan matbuot butun adabiy til funksional uslublari doirasida ham asosiy oʻrin tutadi.

Yana bir muhim jihat. Matbuot – oʻqish degani. U jamiyatda oʻqish hissini ham, umumiy nutqiy madaniyatni ham, tarbiyalaydi. Radio va televideniya oʻqishga uncha moyil boʻlmagan kishilar uchun vaqtni zavqli oʻtkazish vositasi ekanligini ham esda tutish lozim.

Gazeta har bir fikrni dalillash va sharhlash, xulosalash maromi nutqiy tuzilishi hisoblanadi. Uning tarkibidagi turli uslubga xos unsurlarning dastlabki uslubiy sifatlari ham maʼlum darajada betaraflashadi, bu bilan u asl uslubiy sifatini tamomila yoʻqotmaydi.

Matbuotda oʻquvchi fikrini oʻzgartirishga moʻljallangan istalgan bir ifoda yoki gap ishontirishga yoʻnaltirilgan dalil vazifasini ham oʻtaydi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egadir. Kuchli tashviqot va targʻibot vositasi sifatida bugungi kunda – axborot globallasuvi sharoitida gazeta, jurnal, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet va boshqalardan dunyo miqyosida keng foydalanilmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining mamlakat iqtisodi, fani, madaniyati, butun jamiyat hayoti rivojidadagi oʻrni ahamiyati tobora oshib bormoqda. Shu munosabat bilan XXI asr – axborot asri deb atalishi sababsiz emas. Ommaviy axborot va targʻibot vositalari ijtimoiy ongni shakllantirish va aks ettirishning muhim quroli hisoblanadi.

Mamlakatda bir iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlardan boshqasiga oʻtish, jamiyatimiz barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalgam oshirish, kuchli huquqiy davlatdan fuqorolik jamiyati tomon borish inson huquqlari toʻliq

kafolatlangan demokratik tuzumni barpo etish borasidagi davlat siyosatini keng targ'ib qilishda ularning hizmati beqiyosdir. Ular hokimiyat idoralarining keng xalq ommasi bilan bog'lovchi vazifasini o'taydi. Adabiy til rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Mazmuni, bayoni bilan publisistik uslubni uning rag-barang leksik frazeologik, grammatik va uslubiy qirralarini yaqqol namoyon etuvchi soha hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan bo'lmish axborot to'plash, saralash, qayta ishlash va tarqatish tezligiga bog'liqdir. Ana shunday tezkorlikni ommaviy axborot vositalari ta'minlaydi.

Omma bilan adabiy til me'yoriga to'liq amal qilgan holda muloqotga kirishuvchi matbuot tili o'ziga hos jihatlari bilan ajralib turadi. Bular orasida matbuot tili va uslub markaziy o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra janrlar xususiyatidan qat'iy nazar leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik vositalardan foydalanish borasida matbuotda faoliyat olib boruvchi jurnalistlar, xususan, muharrirlar alohida malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak.

Gazeta tilining asosiy xususiyatlari matbuotning maqsadi, mohiyati va vazifasi bilan chambarchas bog'liq.

Gazetaning tamoyillarini faqat mazmuni, yo'nalishi, matbuot faoliyatining tavsifi, uning faktlar, jamiyat hayotidagi hodisalar, siyosatni va hokozolarni baholashigina emas, balki publisistik shakllarning o'ziga hos mohiyati avvalo, gazeta – publitsistikaning tili va uslub belgilaydi.

“Gazeta matnida qiyin ifodalar, bir xildagi andozaga tushib qolgan bayon shakllarining ko'p uchrashligiga sabab matn ustida ijodiy ishlamaslik, yana ham aniqrog'i til va uslub malakasining, mantiqiy tahlilining yetishmasligi hisoblanadi”.¹

Jurnalistikada shakl ko'proq uning maqsadi, vazifasi, mohiyatiga bog'liqdir, avvalo uning ijtimoiy, siyosiy yoki partiyaviy maqomiga publisistning siyosiy o'rni, uning partiyaviy mansubligi faqat mazmundagina emas, balki shaklni tanlashda, uslub, so'z qo'llash, asar ohangida ayon ko'rinadi.

¹ Tohirov Z.T Mantiqiy tahlil – adabiy tahrir asosi // O'zbekiston matbuoti, 2014.-5son.-B.61

Publisistik asar shakli tili va ohangiga doimo katta e'tabor qaratiladi, buni adabiy xodimlar, ayniqsa, muharrirlar unutmasligi lozim. Davriy matbuot shakli, mazmun mohiyatidan qat'iy nazar adabiy til me'yorlaridan chetga chiqmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Garchi bugunga kelib axborot globallashuvi, jadalligi sharoitida, davr taqazosiga ko'ra matbuotda ixtisoslashuv yuz bermoqda. Endilikda ixtisoslashuv gazeta tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Gazeta, jurnal qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, uning tilida shu sohaga mansub terminlar, birikmalar, konstruktsiyalar sezilarli darajada uchraydi. Shunga ko'ra tiliga quruq rasmiylik, siyosiy (partiyaviy)likdan tashqari emotsionallik ham xosdir. Emotsionallik, tabiiyki matn ta'sirchanligi, yodda qolarligini ta'minlaydi. Agar xoh siyosiy, xoh rasmiy, xoh ijtimoiy, xoh ilmiy bo'lsin bari bir qaysidir darajada emotsionallikka ham ega bo'lishi lozim. Chunki, tilning emotsionalligi, baholash xususiyati publisistikaning barcha asosiy janrlariga kirib boradi. Bunga asosiy sabab-publisistning tabiati, jamiyatdagi ahamiyati hisoblanadi.

Publisistikada, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, targ'ibotda til vositalari kishilar ongiga ta'sir o'tkazish va ishontirishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda til vositalaridan foydalanish ko'p jihatdan ommaga samarali va aniq maqsadli ta'sir etishdagi ijtimoiy-baholash sifati va imkoniyatiga bog'liq.

Shunday qilib, til vositalarining jamiyat, shu jamiyatni tashkil etuvchi millat(lar) manfaatlariga ko'ra ijtimoiy baholash xususiyati gazeta uslubining asosiy jihatlari hisoblanadi. Muharrir hamisha matn tahlili va tahriri jarayonida uni boshqa funksional uslublardan farqlovchi ushbu tomonlarini yodda tutishi, zarur hollarda mualliflarni shunga yo'naltirishi kerak.

Gazeta ifodaning baholash vositalarini mumtazam izlaydi. Bayonning baholovchiligiga erishish gazeta tilidagi asosiy jihatdir. Muharrir boshqa funksional uslublarda baholash muammosini publisistikadagicha ahamiyat va dolzarblik kasb etmasligini nazarda tutgan holda matn tahriri jarayonida rang-barang leksik vositalarning qo'llanilishiga to'sqinlik qilmasligi lozim, agar ular muallif tomonidan o'rnida va me'yor bilan ishlatilgan bo'lsa. Masalan, oddiy

soʻzlashuvga oid soʻzlar, kitobiy, balandparvoz (yuqori uslubda) xos soʻzlar, arxaizmlar, maxsus soʻzlar, koʻchma maʼnoli soʻzlar va boshqalar.

Bulardan tashqari gazeta tilida turli soʻz yasovchilar, emotsional-ekspressiv boʻyoqlar, grammatik vositalar, soʻzlashuv uslubiga xos konstruktsiyalar, sintaksisning turli-tuman emotsional (ritorik) vositalari va boshqalar ham uchraydi. Agar bular individual (shaxsiy) boʻlmay, ijtimoiy tavsifga ega boʻlsa, muharrir tahrir paytida buni ham eʼtiborga olishi kerak.

Gazeta tilidagi soʻzning ijtimoiy qimmatini nutq egasining nuqtai nazari bilan belgilanadi. Chunki u faqat muallifgagina tegishli boʻlmay, tahririyatga ham tegishli, shuningdek, ijtimoiy guruh, tashkilot, partiyaga, gazeta kimning fikri, kimning siyosatini ifoda etsa oʻshanga ham taluqlidir. Gazetadagi har bir soʻz jamoa (tahririyat, partiya, uyushma va h.)ning obroʻi bilan yoʻgʻrilgan boʻladi. Gazetada soʻzning kuchi, keskinligining sabablaridan biri shunda ekanligini tahrir vaqtida hisobga olish lozim. Shuni unutmaslik kerakki, faktlar, hodisalar, voqealarni ifoda etuvchi nutq vositalarini tanlash gazeta tilining ijtimoiy, individual emasligiga koʻp jihatdan bogʻliq.

Gazetada asosan ijtimoiy qimmatga ommaboplik xususiyatiga ega va shu bilan birga publisistik-emotsional kuchga ega nutqiy vositalarni yoʻqotmagan nutq vositalaridan foydalaniladi. Lekin muallif ham muharrir ham, shuni yodida saqlashi kerakki, gazeta faqat ijtimoiy qimmatga ega nutq vositalaridan foydalanibgina qolmaydi, balki shundaylarni oʻzi ham “ixtiro” qiladi. Adabiy tildagi sinonimiya hodisasida ham tabaqalashish eʼtiborga sazovordir. Masalan, kutubxona, *nurli dargoh*, *nurxona*: universitet, *doriefunun*, *ziyo maskani*; kashfiyot, *mashaqqat mevasi* va h.

Kutubxona soʻzining sinonimiga aylangan *nurli dargoh*, *nurxona* birikmasi va soʻzi *universitetga* sinonim boʻlgan *ziyo maskani*, *kashfiyot* sinonimiga aylangan birikma – *mashaqqat mevasi* ayni gazeta ixtirolari hisoblanadi.

Demak, gazeta nutqi bu avvalo, taʼsir etishiga qaratilgan nutq, shuning uchun auditoriya manfaatlari va maqsadga muvofiqlik hisobga olinadi. Gazeta matnlarining tahriri bilan shugʻullanuvchi journalist shuni yaxshi bilishi kerakki, gazeta tilining ijtimoiy baholash tamoyili, avvalo, baholovchi til vositalarini

tanlash va ulardan jamiyat maqsadlari intilishlariga muvofiq ham ijobiy, ham salbiy tushuncha va hodisalarni ifodalashga bog'liqdir. Agar gazeta partiyaviy bo'lsa, tilining ijtimoiy-siyosiy baholash mazmuni lo'nda, keskin bo'lishi kerak.

“Gazeta matnini tahrir qiluvchilar, ayniqsa, bunga endigina kirishgan, hali yetarli tajriba va malakaga ega bo'lmagan muharrirlar gazeta tilidagi ekspressivlik, tasviriylilikni “qattiq qo'llik” bilan bartaraf qilishga kirishishdan oldin, shuni yaxshi bilishlari lozimki, gazeta tilini bu borada juda ham cheklab qo'yish mumkin emas. Bular ham bayonda foydalaniladigan vositalar sanaladi.”¹

Publisistika emotsional, ta'sirchan, tasviriy lekin bu xislatlar badiiy adabiyotdagidan o'zgacha – obrazli emas.

Publisistikani badiiy adabiyot bilan aloqadorligini ko'rsatuvchi omil-so'z. Farqlantiruvchi esa tavsifdagi turlilik, so'zdan foydalanish tabiati, usulidir.

Publisistikani badiiy adabiyot bilan aloqadorligini ko'rsatuvchi omil – so'z. Farqlantiruvchi esa tavsifdagi turlilik, so'zdan foydalanish tabiati, usulidir. Badiiy asarning bosh maqsadi borliqni ifoda etish, publisistik nutqda esa fikr va nutqning chuqurligi, mazmundorligi, ifodaning qat'iyligi, emotsionalligi asosiy hisoblanadi. Borliqqa munosabat publitsistika va badiiy asarda tubdan farq qiladi.

Mavjud narsa, hodisaga turlicha yondashish publisistika va badiiy asar tili funksiyasining turlicha bo'lishini taqozo etadi. Yozuvchi voqelikni o'zi yaratgan tasvirlar orqali aks ettiradi, ko'rsatib chizib beradi, bundan tashqari o'zi yaratgan obrazlardan, ulaarga bo'lgan o'z mehri va qahridan foydalanib munosabat bildiradi. Publisist esa ochiq – oydin targ'ib qiladi, ishontiradi, da'vat etadi.

Publisistik asar matni ustida ishlayotganda muharrir, albatta gazeta tili tasviriy – ta'sirchanlik vositalarining vazifasi baholash ekanligini yodda tutishi kerak, zero bular faqat baholash uchun xizmat qilishi lozim.

Albatta, gazeta nutqi uchun ham ekspressivlik kerak, ammo u faqat ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi, xolos. Ekspressivlik, avvalo, muayyan maqsadli, tanlangan va baholovchi tavsifga ega bo'lishi lozim.

Gazeta nutqida metafora, metanimiya, sinekdoha, ironiya, jonlantirish, o'xshatish va boshqalar gazeta uslubiga ko'ra o'ziga xos vazifani bajaradi. Agar

¹ Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. – T.: Tafakkur Bo'stoni, Cho'lpon NNMIY, 2012.–B.207

gazeta materiallarida ko'chimlardan ko'plab foydalanilsa, ustiga ustak ular murakkab, hamma ham tushunavermaydigan bo'lsa, matn (gazeta nutqi) o'z kommunikativligi (ommabopligi)ni yo'qotadi. Bunda estetik mezon bo'lib, oddiylik, tushurarchilik hisoblanadi. Badiiy asarda esa murakkablik, mohirona tanlanganlik, o'ta nozik ma'nolik estetik mezon sanaladi.

Yana shuni esda tutish kerakki, har bir uslub doirasida metaforalar uslub va talabga ko'ra o'zgarib turadi. Masalan, ilmiy uslubda u denotativ ma'noda qo'llansa, badiiy uslubda konnotativdir. Ilmiy uslubdagi denotativlikdan farqlanib publitsistikada ko'chimdan obraz yaratish uchun emas, balki baholash samarasi uchun qo'llanadi (ko'tarinkilik, tantanavorlik, his-hayajonlilik, shuningdek, ta'kid: tasbeh, kesatiq, piching, mazax va b. uchun).

Mafkuraviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa jihatdan muhim tushunchalarni ifodalashda ko'chimlardan samarali foydalaniladi: *g'oyaviy g'o'r, siyosiy ko'r; oq oltin, qora oltin, ishlab chiqarish noni, po'lat qanotlar, fazoni o'zlashtiruvchilar, ilm o'chog'i, po'lat tomirlar.*

Publitsistikada yana bir o'ziga hos jihat bo'lib, u ham bo'lsa, amalda nutqni yaratuvchi muallif "meni"ga to'g'ri keladi. Shuning uchun muharrir bitta uslubiy qatlamga- muallif nutqiga duch keladi. Lekin u publitsistik nutqni kambag'al qilib qo'ymaydi. Balki ayni mana shunda uning o'ziga xosligi, ta'sirchanligi va kuchi namoyon bo'ladi.

Gazeta tilining o'ziga xos jihatlaridan yana biri uning andozaviyligidir. Gazeta nutqining bu xususiyati u paydo bo'lgandan boshlab to shu kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunga sabab bo'lib til grammatika vositalarini tanlash qat'iy belgilanganligi (grammatik tuzilish bunda mutlaqo qat'iy va bajarilishi shart qilib qo'yilgan bo'ladi), bundan tashqari, gazeta uchun belgilangan ijtimoiy – madaniy sharoitning o'ziga xosligi maksimal miqdordagi o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallanganligi, shuningdek, til muhitining betarafligi, yani uslublar bo'yicha malakasi nihoyatda turlicha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallanganligi hisoblanadi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, muharrirlar shuni unutmasliklari kerak bo'ladi, gazetalarda axborot materiallarining odatiy va asosiy turi (xabar, intervyu,

xronika, sezilarli darajada bosh maqola) tayyor qolip (shablon)lar asosida yoziladi, bular oldindan moslangan tayyor quyma soʻz janrlar, til iborat nutqiy qoliplar boʻlib, gazeta ishlab chiqarish jarayonida muayyan maromga keltirilgan boʻladi.

Ammo andozaviylik istisno tarzida qotib qolgan gazeta tilining oʻziga xos jihati deb oʻylash toʻgʻri boʻlmaydi. Muharrir tahrir jarayonida bu holga ijodiy yondashuvi talab etiladi. Aslida nutqiy faoliyatning barcha sohasi andozalangan hisoblanadi. Lekin shu bilan birga nutqning andozaviyligi tabiiy mavjud va takomillashuvchi jarayon. Bundan maqsad loʻnda muloqiy-oqilona tayyor nutq formulasini aloqaning turli sohalari va maqsadlari uchun tayyorlashdan iboratdir. Aslida adabiy tilning moslashuvchanligi, ishlanganligi koʻp jihatdan uning andozalanganlik darajasiga, turli vaziyat, maqsad va boshqalar uchun nutqiy qolip (klishe)lar andoza, (formula)ning koʻp ozligiga bogʻliqdir. Yuqorida qayd etilgan nutqiy shakllarning boʻlmasligi muloqot jarayonini qiyinlashtiradi, til egalarini muayyan muloqot sharoiti uchun yangidan-yangi nutqiy konstruktsiyalar, formulalar yaratishga majbur qiladi bu oʻz navbatida nutqiy janrlar ishlanmaganligini anglatadi. Lekin muharrirlar shu narsani ham unutmasliklari lozimki, haddan tashqari andozaviylikka yopishib olish, muallif uslubiga xos gʻayri-anaviy nutqiy konstruktsiyalardan, formulalardan qochish gazeta tilini kambagʻallashtirib, oʻquvchi uchun zerikarli qilib qoʻyishi mumkin.

Shuning uchun muharrirlarning oʻzlari ham matn ustida ijodiy ishlashlari, tinmay izlanishlari va mualliflarga ham shunday talab qoʻyishlarigina emas, balki bu borada ularga yordam berishlari maqsadga muvofiqdir.

Shunda adabiy til rivojiga oʻziga xos hissa qoʻshilgan boʻladi. Adabiy til rivojida esa oʻz navbatida muloqot ifodalarining barqaror tizimini ishlab chiqishga olib keladi.

Nutqning andozaviyligi tilda tayyor olinmalar barqarorlashuviga olib keladi, ifodaga mumtazamlilik, doim tayyorlik, mudomlik bagʻishlaydi, nomlar va baholarning ijtimoiy qaror topganlik tamoyilini yuzaga ketiradi.

Andozaviylikka qarshilik qiluvchi va u bilan oʻzaro bogʻliqlikda boʻluvchi *ekspressivlik* bir qolipdalikni buzadi, nutq formulalarini oʻzgartiradi, yangilaydi. Gazeta nutqining ekspressivlikdan mutlaqo xoli boʻlishi mumkin emas. Shuning

uchun andozaviylik va ekspressivlikning birgalikda mavjud bo'lish jarayoni adabiy tilni, uning barcha uslublariniqamrab oladi. Gazeta tilida bu aloqadorlik- birgalikda amal qilish jarayoni shart omil bo'lib hisoblanadi. Har ikki hodisa gazeta tilining o'ziga xos tabiati, mohiyatidan kelib chiqadi, vaholanki gazeta ijtimoiy xarakterga ega va ommaviy aloqa vositasi- umumahamiyatga molik mantiqiy muloqot sanaladi. Shuning uchun matn ustida ishlash jarayonida muharrir har ikki jihatga alohida e'tabor bergan holda, andozaviylikka chuqurroq yondashmog'i lozim. Chunki, jurnalistik faoliyatning zid xarakteri, mavzularning mavsumiyligi, qaytarilishi, vaziyatlarning takrorlanishi shuni taqazo etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gazetalardagi qolipga aylanib qolgan konstruksiyalar, formulalar ijobiy yoki salbiy baholovchidir. Masalan: *Ma'suliyatni zimmasiga oldi, muayyan ishlar amalgam oshirildi, muhlislar ishonchini oqlamadi...oqladi, ko'tarinki ruhda, zo'r qoniqish bilan...ga ish bilan javob bermoq, yangi marralar belgilandi, istiqbol rejasi tuzildi, joriy yilda... .. zo'r ko'tarinki ruhda o'tdi, saylov kompaniyasi boshlandi,... tugadi, mo'l –hosil yetishtirildi,...yeg'ib olindi, jazodan qochib qutilib bo'lmaydi, qilmish- qidirmish deb shuni aytadilar, ... ga bag'ishlangan tantanali yeg'ilish bo'lib o'tdi, ... yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.*

Ayrim rasmiy xronik xabarlardagi qoliplarni istisno tariqasida qabul qilish mumkin: *Xabarlarga ko'ra aytishlaricha, so'zlarga qaraganda, ... vaziyatda, ... muhitda, hamjihatlik bilan va b. ocheklarda ham ayrim qolip so'z, birikmalar uchraydi, muharrirlar ham bularni istisno tariqasida qabul qilishlari lozim: qo'li gul ustalr, ishni ko'zini bilib, nuroniy chehralar, mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi, orzular qanotida parvoz etib, mehr qo'rini berib, ko'z qorachig'idek asramoq, el-yurt xizmatida bo'lmoq va b.*

Gazeta tilida umuman, nuqta shakllari andozalashtiriladi va u baholash tavsifida bo'ladi, huddi shu ma'noda u ilmiy va rasmiy-ish yuritish uslubi (betaraf uslub)dan farqlanadi.

Badiiy nutqda ham andozaviylik bor, lekin u publitsistikadan farq qiladi. Badiiy adabiyot tili individual idroklashga asoslanadi va individual nutq yaratishdan kelib chiqadi. Publitsistika ham, badiiy asar ham ommaviy auditoriyaga (yoki alohida

ijtimoiy guruhga) yo`naltirilgan bo`ladi. Muharrir gazeta tilini badiiy asar tilidan farq qilishi uchun avvalo, har ikkisiidagi andozaviylikni farqlash kerak va bu borada muallifga ko`maklashuvi zarur. Agar gazeta tilida nutq shakllari andozalansa, badiiy asar tilida bayon usuli, yo`sini, tarzi andozalanadi.

Shunday qilib, gazeta nutqini andozalashtirish ijtimoiy- kommunikativ baholash yo`nalishida bo`lsa, badiiy nutqni rejalashtirish individual-kommunikativ tavsifga egadir. Gazeta materiallarini tahrir qilishda (har holda ko`pgina janrlarda) andozalashda targ`ib, baholash, tashviq nazarda tutiladi, ko`p marta foydalanish mumkinligi hisobga olinadi va (aksar hollarda) emotsiyani ta`sir ko`rsatishga mo`ljallanadi (masalan, qora guruhlar, futbol ishqibozlari, tinchlik kuchlari va h.)

Andozaviylikni tildagi salbiy hodisa sifatida baholash ham yo`q emas, masalan unga shunday sifat beriladi: quruq, trafaret, bir qolipdalik, o`zgarmas va b. Lekin andozaviylik tilning rang-barang va boy bo`lishiga zidgina emas, balki shunga xizmat qiladi, individual mahorat, o`ziga hoslik, nutq san`atkorilikni ham yuzaga chiqaradi. Zero, muharrir uchun ham, nutq ijodchisi uchun ham tayyor shakllar qancha ko`p bo`lsa, til shuncha boyidi. Demak, mualliflar ham, muharrir ham hamisha izlanishda bo`lishi, yangidan yangi andozalarni ijod qilishi va gazeta matnlariga kiritishi kerak. Emotsional ekspressivligini yo`qotgan qolip nutq shakllaridan foydalanavermaslik kerak. Masalan, *tilga e`tibor – elga e`tibor* allaqachon qolip – andozaga aylanib bo`lgan, undan takror-takror foydalanaverilganidan buginga kelib emotsional –ekspressivligini yo`qotgan, ta`sir kuchi ham qolmagan, agar muallif yoki muharrir haqiqiy ijodchi bo`lsa, ma`noga putur yetkazmagan holda boshqa shakllarni topishi mumkin. Masalan, *tilga hurmat-elga hurmat, til qadri-el qadri, tili ardoqlining o`zi ardoqli* va b. Shunda andoza chuqur estetik ma`no kashf etadi.

Xullas, andozaviylik va ekspressivliklar bo`lgan umumnutqiy yo`nalish gazeta – publisistikada o`ziga yarasha va alohida tavsifga ega. Uning uslubi, asosan, ijtimoiy baholash tamoyiliga ko`ra belgilanadi. Bu xususiyat uning tilida, nutqida, uning tarkibida tuzilishida mumtazam va qonuniy hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan ma`lum bo`ladiki, gazetada, umuman, matbuotda matn tahriri bilan shug`ullanuvchi muharrirlar gazeta tili va uslubini yaxshi

bilishlari talab etiladi. Zero matbuot tili va uslubini yaxshi egallaganlik muharrir mahoratining asoslaridan bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib o'zbek matbuotida ham jurnallarning o'rnini katta. Jurnal tili va uslubi gazetadan farqli o'laroq biror bir sohaga, ma'lum auditoriyaga ixtisoslashgan bo'ladi. Unda asosan ilmiy – tahliliy, badiiy-publisistik materiallar beriladi. Gazetada esa ko'proq axboriy materiallar beriladi.

Ommaviy muloqot uslubi jurnal nutqini ham o'z ichiga olib, ularga xos umumiy lisoniy – uslubiy sifatlar asosida tavsiflanadi. Jurnal tili va uslubi ta'sirchanlik va andozalilikning muvofiqlashuviga mo'ljallab yaratiladi. Uyg'unlik va mutanosiblik jurnal uslubini yaratuvchi asosiy tamoyil hisoblanadi. Bu tamoyilning buzilishi fakti “quruq” shaklda bayon qilishiga yoki fakt o'rniga uning talqiniga urg'u berishga, shuningdek, balandparvozlikning ortib ketishiga olib keladi.

Jurnalda mavzu ko'lamini nihoyatda keng bo'ladi. U ijtimoiy hayotning barcha sohalarini va barcha ijtimoiy toifalarini qamrab oladi. Bu omil turli sohaga oid ommabop so'z va atamalarining, turli uslub unsurlarining qo'llanilishini, matn qurilishidagi uslubiy aralashish esa o'ziga xos betaraf lug'at mulkini qaror toptiradi.

Jurnal tilining yana bir muhim xususiyatlaridan biri uning mazmun ko'lamini mavjud jihatdan – xilma- xilligidir. Hozirgi davr o'quvchilarining bilimi, saviyasi, madaniylik darajasi juda yuqori, ularning o'zaro aloqa qilish doirasi ham nihoyatda keng va xilma- xil. Hozirgi o'zbek o'quvchisi fan –texnikadan ham, siyosatdan, shuningdek, xalqaro ahvoldan ham, ishlab chiqarishning turli sohalaridan ham xabardor. Shu bilan birga uning xilma – xil til vositalarini, turli uslub unsurlarini bemalol tushunish va fahmlash imkoniyatiga ham ega. Gazeta va jurnal tilida turli uslub vositalarining ishlatilishi mana shu sotsiolingvistik omil bilan bog'liq.

Matbuot tilidagi shaxsiy – ijodiy qo'llanishlar, g'ayriodatiy yasamalar, noodatiy birikishlarning tez- tez uchrashi ommaviy muloqot usulida lisoniy – nutqiy odatiylik va noodatiylik, umumiylik va shaxsiylik o'rtasidagi muodillikning o'ziga xos bir tarzda uyg'unlashuvidan dalolat beradi.

Gazeta va jurnalda an'anaviy andozadan, tayyor qolipdan qochish ham, bir xillikka intilish ham fikr ifodalash shakliga, matn qurilishiga bevosita ta'sir etadi.

Matbuot tilida ma`nodosh nutqiy ifodalarning ko`pligi jumla va matn tarkiblanishidagi muvoziylikni, uslubiy muqobillikni yuzaga keltiradi.

Ommaviy muloqot uslubi o`ziga xos tarixiy – ijtimoiy asoslar va an`analariga, axboriy ko`lam va uni uyishtirish, uzatishning uslubi va shakllari hamda qonuniyatlariga ega. Uning matniy qurilish usullari va shakllari turfa xil janrlar bilan uzviy bog`liq. Jurnalist dolzarb mavzuni tanlash, ishonchli faktlarni toppish va qayta ishlash jarayonida uning eng maqbul ifoda shaklini ham tanlaydi. Ifodaning bu shakli va uslubi janr xisoblanadi. Har bir janr vazifasi va imkoniyatlarini anglash hamda ularga ijodiy yondashish gazeta va jurnal samaradorligini ta`minlashga, uning takomillashishiga xizmat qiladi.

1.2 Adabiy tahrir mantiqiy asoslari - muharrir mahoratining bosh omil

Matbuotdagi barcha matnlarni tuzish, ularning axboriy yoki tahliliyligidan, janriy xususiyatlaridan qat`iy nazar mantiqiylikka asoslanadi. Adabiy tahrir ilmidagi mantiqiylik, shubhasiz, umum – e`tirof etilgan mantiqiylikdan farq qiladi. Ikki va undan ortiq suhbatdosh uchun bir – birining fikrini tushunayotgan ekan, demak mantiqiylik uchun maxsus tayyorgarlik yoki ilmiylikning zarurati deyarli sezilmaydi. Oddiy so`zlashuv ko`nikmasi kifoya. Ammo matbuot materiallari matnini tuzish uchun kamlik qiladi. Shunga ko`ra matbuot muharriri matnni tahririga kirishishdan oldin uni diqqat bilan o`qib chiqishi va ilmiy mantiqiy tahlil qila bilishi talab etiladi.

Matnni mantiqiy tahlil qilish ham nashr jarayonidagi boshqa bosqichlarda bo`lgani kabi o`ziga xos yo`sinlariga ega.

Mantiqiy tahlil jurnalistik asar ustida ishlashning barcha bosqichlarida zarurdir. Muallif asar yozish vaqtida, muharrir qo`lyozmani tahrir qilish jarayonida, taqrizchi esa taqriz yozish vaqtida mantiqiylik nuqtai nazaridan qarashi lozim. Mantiqiylik asosida, ya`ni mantiq qoidalariga rioya etgan holda, tuzilgan matn, odatda, oson tushuniladi. U o`z shakliga ko`ra ham yaqqol ayon bo`ladi. Mabodo,

matnda mantiqiy bog'liqlik, izchillik buzilgan bo'lsa, uning shakli ham aniq bo'lmaydi, u xususta muayyan fikr bildirish qiyin bo'ladi. Shakl va mazmun mutanosibligi haqida aytmasa ham bo'ladi.

Bunday vaziyatda, oddiygina qilib, fikrlar g'aliz, janr noaniq deyish kifoya qilmaydi. Muharrirdan aniq va asosli baho kutiladi.

“ Har qanday tahlil singari matnning mantiqiy tahlilida ham, u qismlarga ajratiladi va qismlararo bog'liqlik tahlil etiladi. Bundan tashqari, matn mazmuni birliklariaro bog'liqlik hamda matn tarkibiga kirmagan unsurlar bog'liqligi ham, albatta, tahlil etiladi. Mazkur tahlil ikki bosqichga ega. Birinchisi, fikrlar mantiqi (fikrlararo bog'liqlik baholanadi), ikkinchisi, nomlar bog'liqligi (muayyan fikr ichidagi tushunchalararo bog'liqlik).”¹

Matnning asosiy mazmuniy bo'g'inlarini belgilash uchun, matn bilan birinchi tanishuvda, qismlar bir-biri bilan qanday bog'langanligiga, ya'ni ular bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yoki tinish belgilari bilan bog'langanligi yoki ajratilganligiga asosiy e'tiborini qaratish foydadan xoli bo'lmaydi. Bog'lovchilar (zero, shunga ko'ra, demak, aytish mumkinki, ammo, biroq va b.)ni, shuningdek, tinish belgilarini to'g'ri qo'llamaslikning o'ziyoq fikrlash mantiqsizligini bildiradi.

“Xalq so'zi” gazetasida (2014 yil, 29 sentabr), uning birinchi betida berilgan “Shinam, ko'rkam va obod...” sarlavhali materialida shunday jumla bor:

“ Prezidentimizning “Devorbop materiallar ishlab chiqishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori izchil amalga oshirilishi, aytish mumkinki, bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi”.

Mazkur jumlaning shartli tarzda ikki mazmuniy qismga ajratish mumkin:

¹ Tohirov Z.T. adabiy tahrir. Darslik. – T.: Tafakkur – Bo'stoni, Cho'lpon NNMIY, 2012. -B.83.

Birinchisi, ... **qarorning izchil amalga oshirilishi**, ikkinchisi ... **imkoniyatlar yanada kengaydi**. Har ikki mazmuniy qism ajratish mumkinki bog'lovchi vazifasidagi so'z birikmasi yordamida bir-biri bilan bog'langan. Ammo u mantiqan to'g'ri emas, aslida mazkur kiritma konstruktsiyadan holi jumla tuzilishi maqsadga muvofiq edi. Ya'ni, **"... qarori amalga oshirilishi, bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytirdi"**. Bunday shaklga keltirilganda ikki mazmuniy qismdan anglashilgan ma'no aniqlik, ishonarlilik va dalillanganlik ifodasiga rga bo'ladi. Aytish mumkinki kiritma konstruktsiya ikki mazmuniy birlikni bir – biriga bog'lasa-da, lekin aniqlik, ishonarlilik va dalillanganlikka putur yetkazadi. U mantiqan to'liq ishonch bilan aytish mumkin bo'lmagan holatlarda qo'llanadi. Bu o'rinda yana bir narsani ta'kidlash joizki, bog'lovchilarning turini yaxshi farqlamaslik ham mantiqiy g'alizlikka sabab bo'ladi. Masalan, biriktiruvchi bog'lovchilar, zidlov bog'livchilar, ayiruvchi bog'lovchilardan to'g'ri foydalanmaslik, bitta jumla tarkibida bir xil bog'lovchidan takror foydalanish va hokozo.

Endi quyidagi misolga e'tibor beraylik.

... Ayni paytda kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlartini bitirib chiqayotgan yoshlarimiz egallayotgan eng zamonaviy bilim va ko'nikmalarni amalda joriy etishi uchun ularni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish masalasiga printsiptial ahamiyat berishi va bu vazifa dasturda o'zining munosib o'rnini topishi darkor ("Inson va qonun", 2010 yil 15 dekabr. 1-bet).

Bitta jumla tarkibida to'rt o'rinda va bog'lovchisi qo'llangan. Birinchi va to'rtinchi o'rinda, va bog'lovchisi o'rnida **vergul**, ikkinchi va bog'lovchisi o'rnida *hamda* bog'lovchisi qo'llansa mantiqqa hech putur yetmaydi. Bunday qaytariqqa yo'l qo'yish fikrni chuvalashtirib yuboradi, o'quvchini zeriktiradi.

Yana bir misolga e'tibor qaratamiz:

Xususan, bu boradagi Buxoro viloyatida amalga oshirilgan ishlar va kamchiliklar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, ularni

bartaraf etishga qaratilgan ko`rsatma va tavsiyalar berildi (“Inson va qonun”, 2011 yil 15 sentabr).

Mazkur parchada bir fikr ichidagi ikki tushuncha qorishib ketganligi yaqqol sezilib turibdi. *Ishlar va kamchiliklar... ularni bartaraf etishga ko`rsatma va tavsiyalar berildi*. Demak, ishlar va kamchiliklar bartaraf etilishi kerak.

Ishlar, kamchiliklar qay biirini bartaraf etish lozim?!

Mantiqiy fikrlash ham boshqa har qanday xatti-harakat yoxud jarayonda bo`lgani kabi o`z qonuniyatlariga ega. Agar shunday qonuniyatlar bo`lmaganda edi, insonlar bir-birlarini fikrlarini anglashlari amri mahol bo`lur edi.

Mumtoz mantiq ilmida to`g`ri fikrlashning to`rtta asosiy qonuni ilgari surilgan va muayyan shaklga keltirilgan. Mazkur qonunlarga amal qilsak, fikrda aniqlik, ziddiyatsizlik, tadrijiylik va o`ziga xoslikka erishamiz.

“Bu qonunlar inson tafakkuri xususiyatlarini – fikrning aniqligi va o`zaro bog`liqligi, ishonchli va ziddiyatlaradan xoli bo`lishi zarurligini aks ettiradi”. Fikrni bayon etishda uning talqini ya`ni ma`noviy tuzilishi, aytish mumkinki, cheksiz chegarasiz. To`g`ri fikrlash qonunlari esa muayyan qat`iylilikda fikrning aniq – ravshan chiqishini belgilab beradi. Matnda o`z ifodasini topayotgan ma`lumot (xabar)ning mantiqiy sog`lomligi, uning ishonarliligi, aniqligi va qarama-qarshi (ziddiyatli) emasligi bilan belgilanadi. Adabiy va jurnalistik asarda bayon etilayotgan fikrning ta`sirlilik samarasiga dalillarning, isbotlanganlikning ishonarliligiga ko`ra erishish mumkin.

Agar fikrni ifodalovchi jumla tuzilishida mantiqiylikdan chetga chiqilgan, ya`ni mantiqiy fikrlash qonunlariga amal qilinmagan bo`lsa, bunday holatda muharrirning aralashuvi so`zsiz zaruratga aylanadi. Muharrir esa mantiqiy fikrlashning asosiy qonunlari nimani nazarda tutishligini bilishdan tashqari u mantiqiy xatolarni yuzaga kelish omillarini ham tasavvur eta bilishi, ularning matnga qanday qilib kirib qolishligini, mantiqiy xatoning nutqiy aloqaning samaraliligiga ta`sirini payqay olishi, shuningdek asar shu qismni adabiy material nuqtai nazaridan keng mushohada etishi lozim.

Mobodo muharrir shunday ko'nikma va malakaga ega bo'lmasa, matndagi mantiqiy xatolik to'g'rilanishi emas, aksincha, yangi shaklda yuzaga kelishi tabiiydir.

Jurnalistika asarning mantiqiylik belgisiga egaligi masalasining muhim jihati-mavhum ma'noga va xajmga ega atamalardan foydalanishning oldini olishdir. Jonli, ta'sirchan fikr hamisha o'ziga xos va shu bilan birga o'ziga mos shaklga ega bo'lishi kerak. U aniq, ravshan, hech qanday ikkilanishga yo'l qo'ymaydigan, ikki xil talqinga ega bo'lmagan, ko'p so'zli va uzundan uzoq bo'lmasligi lozim.

Quyidagi matnga e'tibor beraylik.

Biz O'zbekistonning har tomonlama ravnaq topishidan, mamlakatda demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, fuqorolarning turmush darajasi va mamlakatlarinnig obro' e'tibori o'sishidan, tinch va barqaror hayot saqlanib turishidan, ayniqsa, ana shunday ijobiy o'zgarishlardan eng ko'p manfaatdor bo'lgan o'rta qatlam vakillari nomidan siyosiy maydonga chiqqanimizni, bir daqiqa bo'lsa-da, unutmaylik("XXI asr", 2009 yil 8 oktabr).

Matnda gap nima haqda ekanligini dab durustdan ilg'ab olish qiyin. U uzundan – uzoq va ayrim – ayrim qismlar (uyushiq bo'laklar) matndan bir – biridan ajralgan, izchillik yoqolgan. Matnda aytilmoqchi bo'lgan asosiy fikrni aniqlash uchun uni ayrim mantiqiy birikmalarga ajratamiz. Avvalo gapning ega va kesimini topamiz: Biz ega, unutmaylik kesim. Endi ega bilan kesim orasida joylashtirilgan bo'laklarni aniqlaymiz:

- *O'zbekistonning har tomonlama ravnaq topishidan;*
- *mamlakatda demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishdan;*
- *fuqarolarning turmush darajasi o'sishidan;*
- *mamlakatni xalqaro obro'-e'tibori o'sishidan;*
- *tinch va barqaror hayot saqlanib turishidan;*

- *ijobiy o'zgarishlardan eng ko'p manfaatdor bo'lgan;*
- *o'rta qatlam vakillari nomidan;*
- *maydonga chiqqanlik;*
- *bir daqiqa bo'lsa-da.*

Kesimga savol berilsa, fikr ancha oydinlashadi. **Nimani** (unutmaylik)? Javob – **siyosiy maydonga chiqqanligimizni**. Ayon bo'ladiki, **Biz siyosiy maydonga chiqqanligimizni**. Lekin maydonga nima uchun chiqildi? Biz ... **o'rta qatlam vakillari nomidan siyosiy maydonga chiqqanimizni, bir daqiqa bo'lsa-da unutmaylik**. Demak, asosiy fikr biz ajratgan mantiqiy qismlarning 7-8-9 larida ayon bo'ladi. Lekin shundan keyin ham haqli savol tug'iladi. **O'rta qatlam** bor ekan, unda quyi qatlam, yuqori qatlamlar ham bormi, ularni kimlar tashkil etadi? Mantiqan bunday muammoli fikrga yo'l qo'ymaslik uchun atama, nom to'g'ri tanlanishi lozim. Biz ajratga 9 ta mantiqiy qismdan uchtasigina asosiy fikrni ayonlashtiradi qolgan olti banddagi fikrlar faqat o'rta qatlam nimadan manfaatdor ekanligini anglatadi.

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi. 1 – 6 bandlardagi maqsadlar amalga oshirishidan faqat o'rta qatlamlargina manfaatdormi, yana **eng ko'p?**

Tabiiyki, bunday mulohazalar noaniqligi tufayli muharrirning aralashuvi amri mahol.

Afsuski, bunday murakkab shaklli fikrlash, havoyi, balandparvoz, umumiy va nazarda tutilganga yaqinroq ifodani beruvchi ma'naviy so'zlarni qo'llash gazeta tilida jiddiy qusur hisoblanadi. Bu haqda ham nazariyotchi, ham amaliyotchi tilshunos, jurnalist muttaxislar o'z fikrlarini bildirganlar. Ular ko'p so'zlilik, qolip (shtamp)lar matbuot matnlariga soxta ahamiyatlilik va nufuz baxsh etishini, amalda esa fikrning aniq va ravshan bo'lishligiga to'sqinlik qilishini allaqachon aytib o'tganlar. Yillar o'tib bu nutqiy hodisalar ijtimoiy-siyosiy maqom ola boshlaydi. Ayni bir (**tadbir, muammo, ta'minlash**) bilan hayotdagi nihoyatda turli-tuman faktlarni ifodalay boshladilar.

Yoshlar ma'naviyatini oshirish uchun chora-tadbirlar belgilab chiqildi. Islohatlarni amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga to'g'ri

keldi. Aholi turmush farovonligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi va h. Aniq ma'no ifodasi mavhumlashgan ma'no ifodasi bilan almashtiriladi (*masala, muammo; muhum, dolzarb*). Ustuvorlik ma'no bo'yog'i (ottenkasi)ga ega so'z o'rnida universal ma'no bo'yog'iga ega (*katta, sezilarli*) so'zlar qo'llana boshladi. Aloqadorlik va o'zaro munosabat ma'no ifodasi o'z aniqligini yo'qotadi (*tegishli, ayrim*). Qolip (shtamp)lar nimasi bilan maqbul emas? Gap shundaki, qolip so'z, birikma yoki iboraga o'rganib qolinsa, mantiqiy fikrlashdan to'xtaymiz. Qolip ibora misoli parda sifatida narsa, voqea hodisa asl tabiatni ko'zimizdan to'sib qo'yadi unga bo'lgan munosabatimizning farqsizlanishiga olib keladi. Tayin narsa, voqea va hodisa o'rniga ularning qotib qolgan tasavvurini beradi. Berganda ham ancha noaniq va turg'unlashgan tasavvurini lingvistik tenglamani qabul qilar ekanmiz uni jonli til unsuri deb bilamiz, fikrning shunchaki nomini uning mazmun, mundariyasi sifatida qabul qilamiz. Shunday qilib, qoliplarni ongli tarzda kundalik hayotimizga singdirib yuborsak, ular shunchali ijodiylik, ta'sirchanlikni bo'g'a boshlaydi, yuzakichilikka olib keladi. Sobiq tuzum davridagi ongni siyosiy lashtirish tadrijiy sur'atda gazeta sahifalaridan tirik (jonli, ta'sirchan) tilni badarg'a bo'lishligini ayni shu qolip (shtamp)lar tufayli yuz bergandi.

Demak, har bir sohada bo'lgani singari tahrir sohasini, muharrirlik faoliyatini mantiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Me'yorida amalga oshirilgan har bir harakat ifoda etilgan fikr, hatto birgina so'zni qo'llash ham mantiqsiz bo'lmaydi.

Adabiy tahrir uchun kishida turmushda orttirilgan, umumga hos mantiqiylik kamlik qiladi.

Umuman, mutaxassis jurnalist, xususan mutaxassis muharrir narsaning muhim jihatlarini aniqlay olish, ularni toifalash, murakkab tafakkur amallarini bajara olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shunga ko'ra u tahrir mantiqi bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Zero bu muharrir mahoratining eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

II.BOB

Muharrir mahorati

2.1 Tahririning nazariy asosi

Har qanday matnni tahrir qilishdan oldin, u tahlil etilishi shart. Amalda matnni mantiqiy jihatdan tahlil qilish natijasida muharrir muallif o`z mulohazalarida mantiqan to`g`ri fikrlash me`yorlaridan chetga chiqqan – chiqmaganligini aniqlaydi.

Mobodo muharrir mantiq qonun va qoidalaridan xabarsiz bo`lsa, matn mantiqan to`laqonli tahrirdan chiqishi haqida so`z bo`lishi ham mumkin emas!

Muharrirning “ mantiq qonunlarini bilishi tahlilni ancha soddalashtiradi, muharrirga matnni tahrir qilishda qatiyat bag`ishlaydi”.¹

Matbuot materiallarining tahriri ham boshqa har qanday asar, xususan adabiy asarlar matni kabi to`rt mantiqiy qonunga asoslanadi:

1. Ayniyat qonuni
2. Ziddiyatsizlik qonuni
3. Istisno qonuni
4. Yetarli asos qonuni

Agar matn tuzishda mantiqiylikning birinchi qonuniga amal qilinmagan bo`lsa, muharrirning matn xususida biron-bir darajada aralashuviga hojat qolmaydi. Chunki undan muallifning fikri va uslubini deyarli saqlab qolishni talab etish mantiqsizdir. Vaholanki, matnni qayta ishlash yoki tuzatish jarayonida muallif fikri va uslubining muqobilini izlash yoki tuzatish jarayonida muallif fikri va uslubining muqobilini izlash mantiqiylikning ayni mana shu birinchi – ayniyat qonuniga asoslanadi.

¹ Мильчин А.Э Методика редактирования текста.-Москва: Книга, 1980.С.5

Ayniyat qonunining ataylab buzilishi yoki tushunchani bila turib teskari ifodalash holati nisbatan siyrak uchraydi, lekin muharrir – jurnalist munozarachi – mualliflar ahyon-ahyonda foydalanishi mumkin bo'lgan, qaltis usullardan xabardor bo'lishligi foydadan xoli emas.

Shunday usullardan biri matndagi bitta iborani yulib olib, munozara qo'zg'ab qo'yish va muammoni, asosiy fikrni chetlab o'tish, matn yaxlitligiga putur yetkazishdir.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, bunday holat ahyon-ayhonda matbuot sohasida, radioeshittirish va televideniye ko'rsatuvlarida uchrab turadi va deyarli barchasi qandaydir g'arazli maqsad bilan bog'liq bo'ladi. Bunda muallif muholifi bo'lgan tamonni noqulay vaziyatga solib solib qo'yishga intiladi yoki fikrni o'z foydasiga, o'zgartirishga urinadi.

Lekin jurnalistika asarlarida, shuningdek adabiy asarlarda ayniyat qonunidan chetga chiqishlik ko'p hollarda atayin qilingan bo'lmaydi, matnda mavzudan ixtiyorsiz uzoqlashish, fikr uyg'unligi e'tibordan chetda qolganligi, xullas, bayonda quntning yetishmasligi sabab bo'ladi.

Agar bir xildalik (ayniyat) qonuninig talablariga e'tiborsizlik qilib, ular hisobga olinmagan bo'lsa, matndan biron-bir ma'lumotni ilg'ab olish qiyin kechadi, muallifning fikrini bilish mushkillashadi.

“Mantiqning ayniyat qonuniga qat'iy amal qilishlik bayonning savol-javob shaklini tuzishda, ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, matn qurilishining eng zarur shartlaridandir. Mantiq nuqtai nazaridan biz savolni to'g'ri tuza bilamizmi, har doim ham unga javobni mantiqan to'g'ri bera olamizmi? Bu xususda chuqur mulohaza qilish faqat intervyu oluvchi jurnalistnigina mas'uliyati emas, balki barcha qalam ahlining o'ylab ko'rishi talab etiladigan jixatdir”.¹

Bugungi kunda, axborot olish, saralash qayta ishlash va yetkazish jarayoni jadallashgan sharoitda, ommaviy axborot vositalarida intervyu janriga tez-tez murojaat etmoqdalar. Auditoriyaga (o'quvchiga) yaqinroq bo'lishga intilib, uning diqqat – e'tiborini kuchaytirish maqsadida jurnalistlar ko'p hollarda nutqning dialog (yoki suhbat) shaklidan foydalanmoqdalar. Albatta, intervyu o'z

¹ Tohirov.Z.T. Adabiy tahrir. Darslik. – T.: Tafakkur – Bo'stoni, Cho'lpon NNMIY, 2012.- B. 96

xususiyatiga ko'ra boshqa publitsistik janrlardan farqlanadi. Ma'lumot (ayniqsa, radio va televideniya) manbadan auditoriyaga to'g'ridan – to'g'ri yetib boradi. Bunda tezlik va tushunarliklik omillarining biri ikkinchisi mantiqiylik, izchillik, aniq va lo'ndaligini ta'minlash muammosi paydo bo'ladi. Tabiiyki, tezlik bo'lganda mantiqiylikka putur yetishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Jurnalist buni doimo yodida saqlashi lozim. Zero, savol berishdan maqsad muayyan ma'lumot olishidir. Savolning an'anaviy shakli ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchisi, so'roqni bildiruvchi qo'shimcha qo'shilgan yoki so'roq ohangida aytilgan so'z, ikkinchisi savolning asosiy qismi. Odatda, ikkinchisi kutilayotgan javobning tarkibiga ham kiradi. Demak, savolning to'g'ri berilishi, javobning ham to'g'ri bo'lishligining garovi sanaladi. Bunga esa matnning ayniyat qonuniga amal qilinmasdan erishish amri maholdir. Savol aniq, tushunarli, ayonlangan, ya'ni muayyan narsa, voqea, xodisa hususida tayin bir tarzda bo'lishi kerak.

“Ta'lim sohasida nima deya olasiz?”, *“O'qitish ishlarini qanday olib borish samaraliroq bo'ladi?”*, *“Nima qilsa, tadbirkorlik hayotimizga tezroq joriy bo'ladi?”* singari savollarga aniq – tiniq javob berish mushkul. Chunki bunday shakldagi savollar javob turlicha bo'lishiga olib keladi. Savolning asosiy qismini tuzish katta e'tiborni talab qiladi. Savolga mantiqan to'g'ri javob berish degani ayniyat qonuniga aniq rioya qilish demakdir.

Xar bir asarning muallifi (jurnalist) o'z amaliy faoliyati mobaynida savolni belgilash uchun talab etiladigan qandaydir shartlar xususida mulohaza qilib ko'rmasa, kamchilikka yo'l qo'yganligiga hamisha iqrar bo'lishiga to'g'ri kelganligini eslamay iloji yo'q. lekin savolni belgilash uchun talab etiladigan shartlar javobni to'liq aniqlash uchun yetarli bo'ladi degani emas. Savol berishda albatta javob beruvchining savolni jon qulog'i bilan eshitishi, unga to'liq javob berish ishtiyoqi balandligi, shu bilan birga adresatni fikrlashga majbur etishligi nazarda tutilishi lozim. Buning uchun, avvalo, korespondent savol – javob mavzui bo'yicha, katta tajribaga ega, yuqori malakali mutaxassisni tanlashi kerak.

Mantiqan qaralganda savol, odatda, javob olish uchun beriladi, ayni shunday bo'lishi shart, aks holda u nima javob qilishga shama bo'lib qoladi.

Quyidagicha savol bergan jurnalist qanday javob eshitishni kutgan ekan: “Mana siz, domla, jurnalistika fakultetida uzoq yillardan beri ishlab kelmoqdasiz, katta tajriba to’plagansiz. Tabiiyki, bu vaqt mobaynida sizda talabalarga nisbatan muayyan munosabat tarzi yuzaga kelgan, shundaymi?” Mazkur savolning o’zida uning javobi ham tayyorlangan. Suhbatdosh muloyimlik bilan savol beruvchining aytganlariga qo’shilishi qoladi, holos, yohud mantiqning ayniyat qonunini bizgan holda javob qaytarishga majbur bo’ladi. Kuzatishlardan ma’lum bo’ladiki, savol beruvchi o’zi uchun maqbul javobni ololmay qolishdan xavotir bo’lganda, suhbatdosh o’zi tuzgan rejadan chetga chiqib ketmasligi uchun shunday savol beradi.

Atamalar mantiqiy birlik sifatida, nutq hodisasi ekanligiga ko’ra muayyan ob’ekt, narsa, jarayonni ataydi, nomalydi, mana shuni taqazo etuvchi qonuniyat talabi bilan ma’no aniqligi va xajman qisqalikka ega bo’ladi. Agar mazkur talablarga to’liq rioya etilmagan bo’lsa, matnda so’zlardan o’rinli foydalanilganligini muharrir tomonidan to’laqonli baholashning iloji bo’lmaydi.

Qo’llanilayotgan so’zni aniq tanlash fikrni to’g’ri ifodalashning garovidir. Mabodo, muallif yoki muharrir ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ongli ravishda ayniyat qonunining talablariga zid bormoqchi bo’lsa, bunda u jumla tuzishda nihoyatda xushyor bo’lishi, o’zi yo’l qo’yayotgan chetga chiqishlikni o’quvchi tabiiy hol deb qabul qilishiga erishishi lozim. Bunday usuldan foydalanishda ma’nosi yaqin so’zlar – sinonimlar qo’l keladi. Matnda ko’pincha bir- biriga aloqador so’zlardan sinonimlar tarzida foydalaniladi. Masalan, fe’llar – eshitmoq, tinglamoq; ot- o’qituvchi, domla, ustoz; sifat – yaxshi, durust va h.k. muayyan matn ichida bunday “chekinish” mantiqqa xilof sanalmaydi, demak ayniyat qonuni buzilgan hisoblanmaydi. Biroq muharrir muayyan matn ichida atamalarni “erkin” qo’llashlik chegarasini aniq tasavvur etishi lozim.

Mantiqiy fikrlashning ikkinchi qonuni *nutqiy ziddiyatsizlik* qonunidir. Ayni bir vaqtda va ayni bir munosabatda bir narsa, voqea hodisa haqida aytilgan qarama – qarshi fikrning har ikkisi birdek to’g’ri bo’lishi mumkin emas.

Bu qonun Arastu (Aristotel) zamonidan ma’lum bo’lga: bir – biriga zid xukm birdek chin bo’lishi mumkin emas. Zidlikka yo’l qo’yilishiga fikrlashning tum –

taroqligi, uzoq – yuluqligi yetarlicha bilimga ega emaslik, nihoyat nutq egasining niyati va sub`ektiv jihati sabab bo`lishi mumkin.

Nutqiy ziddiyatlik qonuni bilim va amaliyotning barcha sohalarida namoyon bo`la oladi. Mazkur qonunni buzishlik odatda, matniy muloqotning barcha ko`rinishida o`quvchilar auditoriyada keskin munosabatni – norozilikni uyg`otadi. Bunday hol ustidan, ko`pincha, mazah qilib kuladilar, turli mutoyibalar to`qiydilar.

“Termin”, “terminalogiya” deganda ko`pincha mahsus leksikaga oid so`zlar tushuniladi, terminlar, professionalizmlar professional argotizmlar o`rtasidagi farq ajratilmaydi. Terminlarni o`rganishda, avvalo, terminni oddiy so`zdan (termin biror tushuncha yoki predmetga qo`yilgan, emotsional ma`noga ega bo`lmagan maxsus so`z ), kasb – hunar so`z (professionalizm)lardan va professional argotizmlardan farqlay olish zarur (Maxsus leksika 8-9-bet).

Yuqoridagi parchaning birinchi jumlasidagi *farq* ajratilmaydi bilan ikkinchi jumla oxiridagi *farqlay olishga e`tibor berilsa* , kifoya. Ortiqcha izoh – mantiqiy tahlilga xojat yo`q. mantiqiy fikrlashning ikkinchi qonuniga xiloflik yaqqol seziladi.

Matnni o`quvchi ikki ayni bir narsa, voqea, hodisa haqidagi fikrlar, fikr bilan matndan tashqaridagi mavjud holat haqidagi o`z tasavvuri o`rtasidagi ziddiyatni ortiqcha qiyinchiliksiz payqaydi. Bitta jumladagi yoki ketma –ket kelgan jumalardagi yondosh zid fikrni payqash qiyin emas.

Bir jumla ichidagi yoki tutash jumlar doirasidagi zidlik kontakt zidlik deb ataladi va biz bunga yuqorida misol keltirib o`tdik.

Ammo bir – biridan ancha nari – beridagi matnlarda uchraydigan fikrlar zidligi ko`pincha muharrir e`tiboridan chetta qoladi.

Darhaqiqat, so`nggi yillarda matbuotda Cho`lpon hayoti va ijodi to`g`risida ilmiy maqolalar ko`plab chop etildi, qator kitob va risolalar nashr qilindi. Ayniqsa, olimlarimizdan O. Sharofiddinov, A.Aliyev, Sh. Turdiyev, N. Karimovlarning Cho`lpon to`g`risidagi maqolalari atoqli adib ijodini o`rganishda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Ularning safida XX asr 90 – yiilarining yarimiga kelib qator yosh tadqiqotchilar

qo`shildi. Bular – Z. Eshonova, D. Ko`ronov, N. Yo`ldoshev, S. Yo`ldoshbekova va boshqalar. Ular Cho`lpon ijodi bo`yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Shu jarayonda ilmiy – ommabop maqolalar hamda ilmiy publitsistik nashrlar ham chop etildi. (Mustaqil O`zbekiston jurnalistikasi tarixi 58 – 59 – bet.)

Mazkur matn parchasining birinchi jumlasini “ *Kitob va risolalar nashr qilindi*” tarzida tugaydi. Oxirgi jumla esa “ *maqolalar hamda ilmiy publitsistik nashrlar ham chop etildi*” tarzida yakun topgan. Xar ikki qismdagi nashr so`ziga e`tibor berilsa birinchisida “*chop*” ma`no ifodasi, ikkinchisida “*asar*” ma`no ifodasi ayon bo`ladi. Bir – biridan uzoqroq joylashgan ayni bir so`zning zid kelib qolishini muharrirning payqashi ancha qiyin. Distatn zidlikni payqash muharrirdan ancha yuqori malaka va ko`nikma talab etadi.

Matnda ba`zan shunday xatoliklar ham uchraydiki, ayni bir so`z ikki hil keladi. Quyida adabiy asardan olingan misolga e`tibor beraylik.

Bu ma`noda, ayniqsa, islom olamining zabardast allomalari-Imom Buxoriyning 1225 yilligi, Burhoniddin Marg`inoniyning 910, Imom abu Mansur Moturudiyning 1130 yilligi, Abu Iso at Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubronin 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 675 yilligining nishonlanishi, ular asarlarining yuz minglab nusxalarda chop etilishi yurtimizda dinu diyonat qayta yuksalayotganining yorqin dalilidir (“Mustaqil O`zbekiston jurnalistikasi tarixi”, 151 – 152 - bet).

Uning sarchashmasi Muhammad ibn Ismoil al – Buxoriyning “Al – Jome` as - sahih” kitobi ekanligi, keyinroq Abu Mansur Moturidiyning aqoid yo`nalishining qudrati mo`tazila, botiniya va karmatiya

qarashlariga barham bergani asl manbalar asosida yoritilgan.

(“Mustaqil O`zbekiston jurnalistikasi tarixi”, 174 - bet).

Ayni bir kitobda, bir – biridan 22 bet bilan ajralgan mazkur ikki parchada bir ism ikki xil berilgan: Moturudiy – Moturidiy.

Mantiqiy fikrlashning ikkinchi qonuni buzilgan bu matn parchalari bir – biridan ancha narida bo`lganligi tufayli uni muharrir ko`zdan qochirgan.

Muharrirning ko`z ilg`amas ziddiyatlarni aniqlashi uchun shunchaki fikrlarni chog`ishtirishi kifoya qilmaydi. Buning uchun qo`shimcha idrok etish jarayoni talab etiladi.

Bunday *ko`z ilg`amas* ziddiyatlarni aniqlash uchun muharrir matnni takror – takror o`qishi, xatoning mantiqiy asosini aniqlashi lozim. Ba`zi hollarda muharrir bunday “arzimasdek” tuyulgan ziddiyatli fikrlarga muallif (lar) maqomiga ishonib, e`tibor bermay o`tishi ham kuzatiladi.

Lekin muallif kim bo`lishidan qat`iy nazar, har qanday xato, garchi u arzimasdek tuyulsa – da, tuzatilishi shart. Aks holda, asarning qiymati va ahamiyatiga putur yetishi aniq. Agar matn adabiy asraga taaluqli bo`lsa, nashriyotning , matbuot materiali bo`lsa, gazeta, jurnal tahririyatning nufuzi tushishiga sabab bo`ladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov qisqa nutq so`zlab, yig`ilishni ochdi. U o`z nutqida musulmonlar chorizm yarim asr qulligida yashaganini, ozodlik katta talofatlar evaziga qo`lga kiritilganini alohida ta`kidlaydi.

Shu paytda askariy musiqa marshi chalinadi. So`ngra musulmon hurriyat shahidlari uchun Samiqori afandi tarafidan Kalomi Sharifdan ularning hotirasiga fatvo, oyatlar o`qiladi.

Yuqoridagi birinchi parchadagi... *musulmonlar chorizm yarim asr qullikda yashaganini*, konstruktsiyasi, ikkinch parchadagi “*fatvo*” so`zi muharrirdan chuqur

mushohada talab qiladi. Bunday matnlar muntazam mantiqiy nazoratga muxtoj. Yarim asr – 50 yil degani. Yuqoridagi jumla kitobda 1918 yil 12 may shanba kuni aytilgan nutqdan keltiriladi, go`yo nutq egasi shuni ta`kidlagan.

Mazkur o`rinda muharrir chorizm tomonidan Turkiston to`liq bosib olingan sanadan qatd etilgan sanani ayirib, oddiy xisoblash bilan aniqlik kiritishi kerak edi.

Ikkinchi parchadagi zidlikni aniqlash uchun Kalomi Sharifda fatvo bor – yo`qligini aniqlash kifoya qilar edi.

Ana shunday holatlarda muharrir ziddiyatli fikrlarni aniqlash uchun matnni diqqat bilan tahlildan o`tkazishi lozim. Ziddiyatsizlik qonunini bilish muharrirga boshqalar matnni baholash uchungina zarur emas. Mazkur qonun har bir muallifdan o`z mulohazalarini ziddiyatli bo`lmasligini ham talab etadi. Shuni unutmaslik lozimki, tahlil mantiqiy ziddiyatga aslo yo`l qo`ymaydi.

Muharrir matnni diqqat bilan tahlil etishi lozim. Shundagina u mazmunan bir – biriga zid fikrlarni aniqlay oladi, ziddiyatning mohiyatini ochib, uni tuzatishga muvaffaq bo`ladi. Muharrirlik tahririning o`rinli ekaniga muallifni ishontiradi. Zero, har bir mantiqiy zidlikni to`g`irlash muallif va muharrir hamkorligida amalga oshirilishi ayni muddaodir.

Muallifga mulohaza zidligiga yo`l qo`ymaslik xususida tavsiya qilar ekan, avvalo, uning o`zi bu qonunga qat`iy rioya qilishi hamda matn tahlili bilan shug`ullanganda buni hamisha yodida tutishi shart.

Mantiqiy fikrlashning uchinchi qonuni **uchinchisi istisno** qonunidir. Ayni bir xil munosabatda bir vaqtning o`zida ikki bir – biriga zid fikrning bittasi, albatta chin bo`ladi. Uchinchisining bo`lishi mumkin emas. Yunon faylasufi Aristotel mazkur qonunni quyidagicha ta`riflaydi: ikki bir –biriga zid fikr o`rtalig`ida biron – bir narsa bo`lishi mumkin emas.

Mantiqiy fikrlashning mazkur uchinchi qonuni fikrning bog`liqligini va ziddiyatsizligini ta`minlaydi. Chin mulohazani tanlash uchun asos bo`ladi.

Qarama – qarshi fikrlarni aniq belgilash, ular ifodasining ravshanligi, matn qurilishining aniqligi mazkur qonunga amal qilinganligini ochiq – oydin ko`rsatadi. Ushbu qonun bayonning mantiqiy aniqligini ta`minlaydi, fikrning tadrijiy tarzda rivojlantirish imkkonini beradi.

Mantiqiy fikrlash uchinchi qonunini qo'llashning, unga amal qilishning bosh sharti bo'lib qiyoslanayotgan mulohaza chindan ham qarama – qarshi bo'lishi, ya'ni ular o'rtasi, oralig'idagi, uchinchi tushuncha istisno bo'lishi kerak. Ayni bir narsa xususida ikki fikr bir – birini istisno qilishi lozim.

Quyidagi matnga e'tibor beraylik.

Mamlakatimiz hayotining turli sohalariga oid me'yoriy qonunlar, Bosh Qomusimiz asosida yaratildi va hayotga tadbiiq etildi. Eng asosiysi, konstitutsiyaviy ma'yorlar asosida qabul qilingan va joriy etilgan qonunlar inson va jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lib, uning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

1. Mazkur parchada me'yoriy qonunlar tushunchasi munozarali;
2. Me'yoriy qonun: demak qandaydir me'yorni belgilovchi qonun;
3. Me'yorsiz qonun: hamon me'yoriy qonun bo'lsa, demak, me'yorsiz qonun ham bo'ladi;
4. Qonunning o'zi me'yor. Uni yana me'yoriy deyish mantiqsiz.
5. ikkinchi jumla: *...konstitutsiyaviy me'yorlar asosida qabul qilingan va joriy etilgan qonundan...*

Agar yuqoridagi jumlada ma'yoriy qonunlar tushunchasi berilgan ekan, ikkinchi jumlada ham “*...konstitutsiyaviy me'yorlar asosida qabul qilingan va joriy etilgan qonundan... me'yoriy qonunlar...*” bo'lishi kerak (“Inson va qonun” 2009 15 dekabr).

Mantiqiy fikrlashning to'rtinchi qonuni – **yetarli asos** qonunidir. Har qanday chin fikr boshqa, chinligi isbotlangan fikr bilan asoslangan bo'lishi kerak. Mazkur qonunga rioya etish bilan mulohazaning asoslanganligiga erishiladi. Bildirilgan mulohazaning mantiqi fikr umumiy metodologik talabga ko'ra asoslangan , deb hisoblaydi va buning bajarilishini ta'minlovchi bir qator qonunlarni nazarda tutadi (ikki yoqlama inkor, tautologiya va boshqalar).

Quyidagi intervyuga e'tibor qarataylik:

Savol: *Mahmud aka, siz yaqin – yaqingacha “Surxon” guruhining yakkaxon qo`shiqchisi sifatida faoliyat ko`rsatgan edingiz. Endi esa ijodingizni “Surxon” siz davom ettirayapsiz?*

Javob: *Buning oddiygina sababi bor. Guruhimdagi yigitlar o`zlarini qo`shiqchilik orqali sinab ko`rishga mayl bildirdilar. Men bunga qarshilik qilmadim. Yaqinda konsert dasturlarini ham taqdim ettilar. Ularni birinchi muvaffaqiyatlari bilan qutlashga bordim. Intilganga tole yor deyishadi. El, uchun yurt uchun yaxshi qo`shiqlar ijod qilishlariga unid bog`layman xolos. Ishonaman ular buning uddasidan chiqishadi. (“Farzona”, 2010 yil. 25 fevral. 7-bet).*

Mazkur intervyudagi korrespondent va respondent javobiga etibor berilsa, shu narsa ayon bo`ladiki, mantiqan ular ayri – ayri. Savol “Surxon” siz davvom ettirayotlanlik xususida, javob “Surxon” Mahmud akasiz faoliyat olib borayotgani haqida.

Agar interv`yu to`g`tidan- to`g`ri efir yoki ekranga uzatilganda edi, unda jurnalist aralashuvi mumkin bo`lmasdi. Matbuot intervyusida buni to`g`irlashning imkoni mavjud, ammo bundan foydalanilmagan.

Mantiqiy fikrlashning uchinchi qonuni matnni malakali mutaxassis sifatida baholashda muharrir uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan vosita xisoblanadi. Matnni bir talqinini rad etib, ikkinchi talqinini qabul qilish, ikkisidan birini tanlash vaqtida muharrir mazkur qonunga tayanadi.

Mantiqiy fikrlashning to`rtinchi qonuni – **yetarli asos** qonuni har qanday chin fikr yuqorida eslatib o`tganimizdek, chin ekanligi isbotlagan boshqa fikrlar bilan asoslangan bo`lishini talab etadi. Mazkur qonunga rioya etish bilan fikrning asoslanganligiga erishiladi. Bu esa to`g`ri fikrlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mulohaza mantiqiy fikrning asoslanganligi umumiy metodologik talab, deb hisoblaydi va u bir qator

qonunlarni nazarda tutadi. Mazkur qonunlar yetarli asos qonunining bajarilishini ta'minlaydi (bular – ikki yoqlama inkor, tautologiya, simplikaatsiyalar, kon'yunksiyalar va boshqalar).

Har qanday mulohazada fikrlarimiz o'zgarib ichki uyg'unlikka ega bir – biri bilan bog'liq bo'loshi lozim. Bundan tashqari biri ikkinchisining tadrijiy davomi hamda biri ikkinchisini asoslashi kerak. Mulohazalarning chinligi asoslarning yetarlicha ekanligini o'rganish maxsus fanlarning o'rganish ob'ektidir. Mantiqiy asoslanganlik har bir jurnalistika asarining zaruriy sifat ko'rsatgichidir.

Faqat bilimining sayozligi va e'tiborsizlik bilan mulohaza yuritishgina bayonning isbotlanmaganligiga sabab bo'lmaydi, balki, fikrlashda qotib qolganlik (bir qolipga tushib qolganlik) ham bayon asoslanmagan bo'lishiga olib keladi. Masalan, jurnalist odat bo'lib qolgan, go'yo ishonchlidek tuyulgan "ilgari - hozir" tarzidagi bayonga yopishib oladi.

Odatiy idroklash ko'pincha ijodchi – yozuvchiga hodisaning mohiyatiga kirib borishiga, yuz berayotgan hodisalar sababini ochib berishga xalaqit qiladi. To'la – to'kis yoritilganlik xissiyoti muharrir va jurnalist uchun hamisha xavotirlidir.

Lekin faktlarni zo'rlab, tig'izlab qandaydir tarzda joylashtirish, u har qancha "ishonchli" tuyulmasin, yanada xavfliroqdir. Materialni majburlashning noxush oqibati o'zini ko'rsatishni cho'zib o'tirmaydi, bu muqarrardir.

Biz mantiqli fikrlashning qonunlari tasodifan buzulganligi holatiga kamdan kam duch kelamiz. Asosan bunday kamchiliklarga tartibli fikrlay olmaslik tufayli yo'l qo'yilganligiga guvoh bo'lamiz.

Har bir mantiqiy nuqson muharrir uchun ogohlikka undovchi omil bo'lib xizmat qilmog'i lozim, toki u matndafikrning tobora oydinlashib borishini nazorat qilish uchun o'z diqqatini muntazam kuchaytira borsin. Ana shundagina jurnalistning istalgan janrdagi asarini risoladagidek, deb baholash adolatli bo'ladi.

2.2 Matn tahriri va tahlilida muharrir mas'uliyati

Publisistik asarning sayqal topishida , uni pishiq – puxta, bexato, barkamol holda o`quvchiga yetkazishda muharrirning xizmati benihoya katta.

Muharrir deganda biz faqatgina tahririyatdagi lavozimni emas, qo`lyozmalar, matni ustida ishlovchi, ularni saralovchi va ommaga mukammal, teran ma`no va mazmunga ega bo`lgan holda yetib borishiga xizmat qiluvchi shaxsni tushunamiz. Ya`ni muharrirning tahrirchi sifatidagi faoliyati, mas`uliyati haqida so`z yuritamiz.

Matbuot hali paydo bo`lmasidan oldin, muharrirga asosan , kitob, risolalar chop etishga ehtiyoj tug`ilgan. Ya`ni qo`lyozmalarni kitob hoiga keltiruvchi xattotlar, kotiblar, muharrirlar ulardagi xato va nuqsonlarni bartaraf etish bilan ham shug`ullanganlar.

Taniqli tanqidchi va adabiyotshunos olim Umarali Normatovning “Muharrir mehnatining mas’uliyati” maqolasida muharrir, o’tmishda shu vazifani bajargan kotibu xattotlar haqida, ular mehnatining zaxmati va mas’uliyati haqida soʻz yuritiladi.

“Agar siz chop etilgan kitoblarning soʻnggi sahifasiga nazar tashlasangiz, mayda harflar bilan terilgan muharrirning ismi-familiyasiga koʻzingiz tushadi, xuddi shuningdek, koʻzni quvontiruvchi, aqlni lol qoldiruvchi qadimiy qoʻlyozmalarni varaqlasangiz, kitob oxirida nihoyatda kamtarlik bilan oʻzlarini faqiru- haqir deb atagan xattot – kotiblar nomini oʻqiysiz.

Ana shu – kichik harflar bilan terilgan muharrirlar, oʻzlarini faqiru haqir sanagan xattotlar aslida kichkina , haqir odamlar emas, balki ulkan nomdor shaxslardir.... Darvoqe, qadimda xattotlar faqat kotib, kitob koʻchiruvchigina emas, shu bilan barobar hozirgi tushunchadagi muharrirlik vazifasini ham oʻtaganlar; oʻtmishda xattot, kotib, muharrir soʻzlari deyarli bir maʼnoda qoʻllangan ”.¹

Adabiyot tarixidan bilamizki, ulkan soʻz ustalari zargar xattotlar, mohir muharrirlar xizmatiga alohida hurmat, eʼtibor hamda yuksak talabchanlik bilan qaraganlar, oʻzlarini hamisha ularning maslahat va madadiga muhtoj his etganlar. Buyuk mutafakkir bobokalonimiz Alisher Navoiy “ Mahbub-ul qulub” asarida muharrirni “ soʻz maxzanining xozonadori yaʼni, soʻz xazinasini saqlovchi deb ataydi va muharrir mehnati mas’uliyati ustida toʻxtalib, muharrir tahlili tuzuk boʻlsa maqbul boʻlur; koʻp xato boʻluvchi boʻlsa qoʻli falaj kasaliga uchrasin deydi. Buyuk soʻz sanʼatkori Lev Tolstoy muharrirga shunday taʼrif bergan: “ Tajribali va vijdonan ishlaydigan muharrir oʻz mavqeyiga koʻra ijodkorlar bilan kitobxonlar oʻrtasida doimiy vositachidir”. Shuningdek, rus yozuvchisi Maksim Gorkiy esa muharrir mehnati qadrini yanada oshirib, “ muharrir maʼlum maʼnoda yozuvchiga oʻrgatadigan, uni tarbiyalaydigan odam” deb yozadi. Bunday yuksak sharafni oqlash uchun esa, muharrirdan alohida iqtidor, kuchli tafakkur talab etiladi. Badiiy yoki publitsistik asarni chuqur tushunadigan, atroflicha tahlil qila oladigan, yutuq va kamchiliklarni behato aniqlaydigan, yetuk bilimli, hushyor va

¹ Normatov U. Muharrir mehnatining mas’uliyati // Yoshlik – 1985. 5 son

sinchkov muharrirgina mana shunday bahoga munosib bo'la oladilar, “ soʻz maxzanining xazonadori” darajasiga koʻtarila oladilar.

Nashriyot va tahririyatlarga kelgan qoʻlyozmalar, turli hajmdagi asarlarning taqdiri muharrirga bogʻliq boʻladi. Malakaliy muharrir asarning (u xoh badiiy, ilmiy publitsistik yoʻnalishda boʻlsin) teran maʼnoga ega boʻlib, oʻquvchi ongiga ravon yetib borishiga xizmat qiladi. Ammo, buning aksi boʻlishi ham mumkin. Yaʼni, oʻz ishining ustasi boʻlmagan, saviyasiz muharrir – tahrirchi matndagi mukammallikka putur yetkazishi, ijodkor – muallifning oʻziga xos uslubini yoʻqqa chiqarishi mumkin. Bu borada “ muharrir mehnatining masʼuliyati” maqolasida shunday deyiladi:

“ Bilimdon, mulohazakor, mafkuraviy yetuk, soʻz xizmatini teran anglaydigan sinchkov muharrirga duch kelish - yosh yozuvchi – adabiyotchi uchun katta baxt. Samar Nurovning “ Maysalarni ayoz urmaydi” romani “ Sharq yulduzi” jurnali tahririyatiga topshirilganda salkam olti yuz sahifadan iborat, xiyla xom, kompozitsion jihatdan ancha tarqoq edi. Tajribali muharrir Haydarali Niyozov muallif bilan uzoq vaqt jiddiy ish olib bordi, asar deyarli yarmiga qisqardi, ortiqchaliklardan tuzalib, uslub tomonidan birmuncha sayqal topib oʻquvchiga yetib bordi.

... Goʻzallik tuygʻusidan mahrum hissiz, noshud – notavon, masʼuliyatsiz muharrirga duchor boʻlish – ijodkor, badiiy asar, qolaversa butun adabiyot uchun zavol!...

... Yodimda bir paytlar Abdulla Qahhor “ Bemor” hikoyasiga kiritilgan kichik bir oʻrinsiz tahrir uchun muharrirdan qattiq noligan edi. Bilasiz oʻsha hikoyada shunday jumla bor: “ Hammayoq jim. Faqat pashsha gʻingʻinlaydi,bemor inqillaydi...”. Muharrir matndagi “ inqillaydi” soʻzini qandaydir hayolga borib “ ingraydi” deb “ tuzatibdi”. Holbuki, oʻsha holatda bemor sirayam “ ingramaydi”, balki faqat “ inqillaydi”. Yoki Said Ahmadning “ Odam va boʻron” hikoyasiga kiritilgan kichik bir tahrirni eslaylik. Yozuvchi asarning asl nusxasida shoʻx, shaddod qahramoni Kokila haqida gapira turib, jumladan, Kokila “ sochini, naq taqimiga tushadigan qop – qora uzun sochlarini yelkazidan kestirmoqchi boʻlganida voy akasidan yegan kaltaklari...” deb yozadi, muharrir jumla oxrini “

akasidan rosa kaltak yegan edi” deya, “ tuzatgan”, “ to`g`irlagan”. Bunday “ tuzatish”, “ to`g`irlash” tufayli tasvirdagi ichki bir joziba, sho`x ohang barbod bo`lgan. Men Said Ahmad akaga buni ko`rsatganimda muharrir o`zboshimchaligidan rosa xunob bo`lgan edi”.¹

Ushbu fikrlarda keltirilgan misollar asosan badiiy matnlar tahriri haqida. Ammo, matn qaysi uslubda, qaysi yo`nalishda, qaysi janrda bo`lmasin muharrir zimmasiga tushuvchi mas`uliyat va vazifa bir xil.

Matbuot materiallari tahririning o`ziga xos xususiyati shundaki, bu jarayonda tezkorlik muhim . Nashriyotlarda badiiy matnlar tahlili va tahririda muharrirning bevosita muallif bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati mavjud bo`ladi. Ammo matbuotning axborot, tahliliy janrlariga oid matnlarni tahrir va tahlil etishga muallif bilan hamkorlik qilishga ortiqcha vaqt ham, zarurat ham bo`lmaydi. Axborot janridagi materiallar tezda tahrirdan chiqarib chop etilmasa eskirib qoladi, tahliliy matnlar ham o`z dolzarbligini, ahamiyatliligini yo`qotishi mumkin. Xullas, asosiy mas`uliyat muharrir – tahrir qiluvchi zimmasida qoladi.

Xo`sh, matbuot matnlarini tahlil va tahrir etishda muharrirning mas`uliyati qanaqa va u qanday ishlarni amalga oshiradi?

Muharrir – muallifning birinchi o`quvchisi, lekin u muallifning asarini boshqalardan yaxshiroq tushunadigan, unga yordam beradigan ijodiy hamkor ham. Muharrir asarni o`quvchi nuqtai nazaridan tushunishi, qiziqishi jihatdan baholaydigan mas`ul mutaxassis ham. Muharrir matnnning yaratilish, tarkiblanish jarayonini o`rganuvchi, nazorat qiluvchi, uni muallif va mushtariy munosabati nuqtai nazaridan tahlil etuvchi adabiy tanqidchi, matnni mukammallashtirish tadbirlari va usullarini tayin etuvchi tadqiqotchi olim. Uning tadqiqotchi sifatidagi faoliyati bevosita asar qo`lyozmasiga, uning muallifiga qaratilgan bo`ladi. Mohir muharrir nashr ishlari va tahrir tutumlarini yaxshi biluvchi, adabiy shakllar, badiiy – nutqiy san`atlar, til va uslub ilmidan xabardor, o`z ixtisosligi bo`yicha chuqur nazariy bilim va malakaga ega ijodkordir.

¹ Normatov U. Muharrir mehnatining mas`uliyati // Yoshlik – 1985. 5-son.

Muharrir mas'uliyatini belgilovchi omillardan biri bo'lib uning mahorati hisoblanadi. Izohli lug'atda muharrir mahorati birikmasiga quyidagicha ta'rif beriladi:

Muharrir mahorati- muhim voqealarni chop etishdagi dalillik. Nima muhimligini tushinish, nimani o'tkazib yuborishni anglash, samarani baholash uchun nafislik, voqeani butunlay yoki qisman gapirib bera olishda intiluvchanlik, tarixiy fonni yetkazib berish uchun xolislik, haqiqatni poyoniga yetkazish va uni ko'ra bilish, muhlislarga oldinga qarashlari uchun ko'maklashish uchun ziyraklik.

Muharrir avvalo muallifni ijodkor inson sifatida, uning qo'lyozmasini ijodiy faoliyat mahsuli sifatida hurmat qilishi, muallif maqsadini tushunishi, uning fikr - mulahazalariga hayrixohlik bilan qarashi, muallif bilan ijodiy hamkorlikni majburlash emas, ishontirish asnosida olib borish, uning o'ziga xos uslubini saqlashi, qo'lyozmaga asossiz ravishda tuztishlar, o'zgartirishlar kiritmasligi lozim. Muallifga ijodiy niyatini yuzaga chiqarishda, matnni mazmuniy va adabiy jihatdan mukammallashtirishda yordam berishi muharrirning asosiy maqsadi bo'lishi lozim.

Biz yuqorida matbuotda, xususan, gazetalardagi tahrir jarayonining tezkorligi haqida aytib o'tgan edik. Ya'ni, matnga qayta – qayta murojat qilish, muallif bilan hamkorlik qilish ma'lum ma'noda vaqt va imkoniyat jihatidan cheklangan. Bundan kelib chiqib, muharrir matnni o'zi xohlagan yo'sinda o'zgartirishi mumkin emas albatta. Muharrir va adabiy hodim matnni aralashishining o'ziga hos huquqiy, ahloqiy va adabiy – ijodiy chegarasi va me'yori mavjud. Bu turli omillar bilan bog'liq. Muharrirning matnga aralashishi uni o'zgartirishi, qayta ishlash me'yori va mezonlari aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsada, ammo, uning umumiy tamoyillari va tartiblari bor.

Muallifning o'z asariga nisbatan haq – huquqlari mavjud. Shu o'rinda avvalo, muallif “kim?” degan savolga javob beraylik.

Ommaviy kommunikatsiyaning turli sohalariga oid atamalar izohi berilgan lug'at – ma'lumotnomada “ Muallif – jurnalistik, badiiy, ilmiy, texnik asarni yaratgan shaxs”¹ deb ta'rif beriladi. “ Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar

¹ Луѓат (журналистика, реклама, паблик рилейшнз) маълумотномаю 1700 атамаюГ.:Зар қалам. Б.139.

to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 1-bobi , 3-moddasida “ muallif – ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs” ¹ deb belgilab qo'yilgan.

Fuqorolarning so'z , matbuot va ijod erkinligini ta'minlashda mualliflik huquqining qonun muhofazasiga olinganligi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Mualliflik huquqi muallifning badiiy , musiqiy , adabiy va boshqa asarlarni yaratish , chop etish va sotishga bo'lgan huquqi bo'lib , u qonun bilan muhofaza qilinadi. Mualliflik huquqi muallif hayoti mobaynida va vafotidan so'ng 50 yil kuchda turadi. Mualliflik huquqida muallifning ismi , familiyasi va uning dahlsizligi muddatsiz kafolatlanadi .²

Shuningdek, Qonunning 18 – moddasiga binoan muallifning rozilgisiz uning asarini bezaklar , so'z boshi , xotima , sharhlar yoki biron – bir tushuntirishlar bilan nashr etish taqiqlanadi.

Demak , matbuot materiallarini tahlil vatahrir etishda muharrir avvalo , muallifning haq – huquqini hisobga olishi lozim. Ya'ni , o'z shaxsiy qarashidan kelib chiqib muallif material taqdirini belgilamasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 – moddasida fuqorolarning fikrlash va so'z erkinligi , axborotni uzatish va tarqatish huquqi mustahkamlab qo'yilgan. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taaluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanish mumkin.³

Mazkur huquq va erkinliklarni ro'yobga chiqarishda ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutar ekan, e'lon qilinayotgan axborotning to'g'ri va haqqoniyligi uchun hujjatlarda belgilangan tartibda javobgar ham bo'ladilar.

Yani 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga binoan journalist o'zi tayyorlagan va tarqatayotgan materiallarning haqqoniy bo'lishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir. Shuningdek “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi

¹ O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida” gi Qonuni // O'zbekiston matbuoti.-2006. 4 – son.

² Lug'at ma'lumotnoma. 1700 atama. – T.: Zar qalam. B.139 – 140.

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'qituvchi – 2005. B.10

qonunining 11-moddasida “Ommaviy axborot vositalari e’lon qilinayotgan axborotning to’g’riligini tekshirib ko’rishlari shart va ular axborot beruvchi bilan birgalikda uning to’g’riligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo’ladilar” deb belgilab qo’yilgan.

Ushbu ikki tomonlama javobgarlikning qonunda belgilanishi haqida taniqli yozuvchimiz, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Matbuot va axborot qo’mitasi raisi O’tkir Hoshimov “So’z - kuchli qurol, uni bilib ishlatish kerak” sarlavhali maqolasida shunday to’xtalib o’tadi:

“Qonun loyhalari sessiyalarida silliqqina o’tib ketadi, deb aytganlar xato qiladi. Masalan “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to’g’risida” gi qonun loyhasi birinchi o’qishda qabul qilinib, xalq muhokamasiga tashlanganida, ilmiy-amaliy seminarlarda muhokama qilinganda nihoyatda adolatli fikr aytiladi. Qonunning avvalgi loyhasida matbuotda e’lon qilingan axborotning haqqoniyligi uchun ommaviy axborot vositalari mas’uldir, degan mulohaza bor edi. Jurnalistlar g’oyat mantiqli savol bilan murojaat qildilar. Qaysidir yuridik shaxs (deylik bir sohaning vaziri) noto’g’ri axborot bersa-yu, journalist shuni matbuotda e’lon qilsa buning uchun faqat journalist ayibdormi? To’g’ri gap shu boisdan, ikkinchi o’qishda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan materialning , axborotning haqqoniyligi uchun axborot manbai va uni e’lon qilgan shaxs baravar mas’uldir, degan tushuncha kiritildi.

“Ommaviy axborot vositalari to’g’risida” gi qonun loyhasi muhokamasida axborotning haqqoniyligi uchun faqat axborotni bergan shaxs mas’ul, degan fikr ham aytiladi.

Savol tug’iladi. Masalan, men sartaroshxonaga chiqib soch oldirdim. Sartarosh menga aytdi: “Eshitingizmi, Chirchiqda falon zavod portlab ketibdi. O’n kishi portlab ketibdi. Ellik kishi bannisaga tushibdi”. Men journalistman. Bu “sensatsiya”ni ertasiga mamlakat gazetasida , borinkı tuman gazetasida chiqardim.

Indinga bilsak, bu yolg’on gap ekan. Muharrirga rasman e’tiroz bilan kelishdi. Muharrir meni chaqirib, bu gapni qayerdan oldingiz, deb so’radi. Men aytdim.

Mahallaning sataroshi aytuvdi, o'sha bilan gaplashavering, mening bunga aloqam yo'q, desam to'g'ri bo'ladimi? ”¹

Sodda qilib ifodalangan ushbu fikr va keltirilgan misol orqali OAV materiallarining, xususan matbuot materiallarining to'g'ri va haqqoniyligi uchun javob beruvchi xodim zimmasidagi mas'uliyatning bir qirasi namoyon bo'ladi. Bunday mas'uliyatning asosiy zalvorini o'z yelkasiga oluvchi shaxs bu albatta, muharriridir.

Ba'zi matbuot nashrlarining so'nggi sahifasida (asosan nashrlarning) e'lon qilingan materialdagi fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif masul, degan jumla mavjud. To'g'ri, muallif o'sha materilani, aytaylik maqolani yozish, tayyorlash jarayonida, kerakli faktlarni, manbalarni qidirib topadi, ulardan foydalanadi va albatta, ularning nechog'lik to'g'ri va haqqoniy ekanligi uchun mas'ul ham bo'ladi. Ammo, tahririyatga keladigam maqola, lavha, xabar va boshqa janrdagi materiallarning barchasi ham mohir, faktlardan to'g'ri va mukammal foydalana oladigan jurnalistlar tomonidan yozilmaydi. Ularning muallifi endigina jurnalistika olamiga qadam qo'yayotgan talaba, yoki bu soha sirlaridan umuman bexabar bir muhlis, umuman boshqa bir kasb egasi bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda O'tkir Hoshimov maqolasida keltirib o'tilgan misolga qaytaylik. “Chirchiqda zavud portlagani” to'g'risidagi yolg'on xabar uchun albatta, mahalla sataroshi javob bermaydi. Javobgar albatta “sensatsiya” ketidan quvib, faktning to'g'ri yoki no'to'g'riligini tekshirmay matbuotga bergan muallif. Lekin, shunday shov-shuvli va to'g'ri-noto'g'riligini aniqlash mumkin bo'lmagan axborotning hech bir nazoratsiz matbuot sahifasiga chiqib ketishda muharrirning hech qanday aybi bo'lmaydimi? Ushbu ma'lumotning qayerdan olinganligi, gazeta sahifasida chiqqan xabarga rasman e'tiroz kelganidan keyin emas, material terishga berikmasdan oldin o'ylash kerak emasmi?

Demak, materialning ahamiyatga oid yoki aksincha ekanligini, chop etishga yaroqli-yaroqsiz ekanligini muharrir hal ertadi. Shuningdek, materialni tahlil va tahrir qilish asnosida faqatgina kerakli, muhim qism, jummalarni qoldirib, ortiqcha

¹ Eng sodiq do'st, eng zarur hamroh. –T.: O'zbekiston, 1998. B.60

deb hisoblagan qismini olib tashlashi ham mumkun. Buning uchun muharrir qonun bilan belgilab qo'yilgan vakolatga ega.

“Ommaviy axborot vositalari muallif materiallaridan, fan, adabiyot va san'at asarlaridan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanishga yo'l qo'yiladi. Tahririyatga kelgan xatlarni e'lon qilishga tayyorlash chog'ida ularni mazmunini buzmaganda matinni qisqartirish hamda tahrir qilishga yo'l qo'yiladi.

Tahririyat qonuniy asoslarda rad etgan ommaviy axborot vositalarida majburan e'lon qilishga hech kim haqli emas.”¹ Buning uchun unda albatta yetarli asos, dalil bo'lishi lozim. Til va uslub jihatdan nuqsonlilik, ma'no va mazmunning sayozligi, mantiqiy g'alizliklar shunday asos bo'la olishi mumkun. Lekin kim yoki kimlarningdir iltimosi, buyrug'i (norasmiy), qonunga xilof ravishda senzura bilan materialni olib qolishga muharrir haqli emas.

“Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida” gi qonunning 4-moddasida, O'zbekiston Respublikasida tsenzuraga yo'l qo'yilmaydi. Jurnalistdan xabar va materiallarni oldinda kelishib olishni, shuningdek material yohud xabarning xabarning matnini o'zgartirishni yohud ularni butunlay nashrda olib qolishni, talab qilishga hech kimning haqqi yo'q”, deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mazkur qonunning 5-moddasiga ko'ra, jurnalist o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida:

- O'zi tayyorlagan xabar yoki materialning mazmuni tahrir jarayonida buzilgan degan fikrga kelsa, unga imzo qo'ymaslik yoxud uni nashrdan olib qolishni (efirga bermaslikni) talab etishi;

- Axborot manbayi yoki muallifning nomi sir saqlanishini talab qilish;

- Taqdim etgan xabarning mazmunini ommaviy axborot vositasi buzib e'lon qilishi oqibatida o'ziga yetkazilgan ma'nivi zarar va moddiy ziyon qoplanishi, kabi huquqlarga ega.

Senzura, oddiy qilib aytganda, muayyan axborot berishga (nashr qilinishga) to'sqinlik qilish, unga nisbatan ta'qib va cheklov o'rnatishdir. So'z erkinligi, fikr bildirish erkinligini har qanday cheklash demokratiyaga xilofdir. Ammo

¹ O'zbekiston Respublikasining " Ommaviy axborot to'g'risidagi" gi Qonuni// O'zbekiston matbuoti – 2007.1-son

senzuraning olib tashlanganligi jurnalistlar; ommaviy axborot vositalari istagan xabar, ma'lumot va materiallarni e'lon qilaveradi degani emas, albatta. Masalan, "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida" gi qonunih 5-moddasiga ko'ra, jurnalist o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni istisno etgan holda, hujjatlar, materiallar va axborotdan foydalana olish huquqiga ega.

Demak, qonunga binoan, muharrir siriga taluqli bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lsa yoki kishilarning shahsiga, sha'niga dahl qiluvchi materiallarni nolib qolishga haqli.

"Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasiga ko'ra, davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutloqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi.

Qonunga jurnalist yoki ommaviy axborot vositasi prakuror, tergo'vchi yoki surishturuv-chining yozma ruhsatisiz dastlapki tergov materiallarini e'lon qilishi, muayyan ish bo'yicha sud qarori chiqmasdan yoki sudning hal qiluvchi qarori yoki hukim qonuniy kuchga kirmay turib, uning natijalarini tahlil qilish yoki sudga o'zgacha yo'l bilan ta'sir ko'rsatish taqiqlanadi. Bu taqiq fuqorolarning ayibsizlik prezumpsiyasi ta'moili buzulmasligi uchun belgilangan bo'lib, shaxsning sha'ni va obro'si asossiz zavol topishining oldini oladi.

Muharrir va muallif munosabatining huquqiy maromlaridan yana biri shuki "Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida"gi qononning 10-moddasida belgilab qo'yilganidek, ommaviy axborot vositalari axborot manbayini va taxallusini qo'ygan muallifning kimligini uning roziligisiz oshkor etishga haqli emas. Axborot manbayi yoki muallifning kimligi faqat sud qarori bilan oshkor etiladi.

"Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risidaga" gi qonunning 10-moddasiga binoan esa, muallif asari imzosiz yoki tahallus asisida chop etilgan taqdirda (muallifning taxallusi uning kim ekanligiga shubha qildirmaydigan hollar bundan mustasno), satni chop etgan muharrir, asarda ismi sharifi yoki nomi ko'rsatilgan

nashr, agar boshqa dalillar bo'lmasa, muallifning vakili hisoblanadi va muallifning huquqlarini himoya qilish, ularni amalga oshirishni ta'minlash huquqiga ega bo'ladi. Ushbu qonuda bunday asar muallifi o'z shaxsini etgunicha va o'zining muallif erkinligini ma'lum qilgunga qadar amalda bo'ladi.

Bunday holatlarni qachon kuzatish mumkun? Matbutda ko'proq badiiy-publisistikaning fel'eton, komflit kabi janrlariga oid materiallar, tanqidiy ruhdagi maqolalarda muallifning tahallusi qo'yiladi yoki gazetada muntazam berib boruvchi, jamiyatdagi qora illatlarni yorituvchi, fosh etuvchi materiallar bitta shartli taxallus, nom ostoda berib borish mumkun. (Masalan, "Adolat ko'zgusi" gazetasi – "Qalampir")

Ushbu huquqiy holatlar va majburiyatlarni har bir OAV xodomi xususan, muharrirlar mukammal bilishi va faoliyati davomida amal qilishi lozim.

Shu o'rinda aytib o'tish joiz, matbuotimizda tanqidiy materiallarni, o'tkir feletonlarni kamroq uchratamiz. Bu holni hali matbuotimiz sobiq tuzum mafkurasi ta'siridan to'liq chiqib keta olmaganligidan deb hisoblashadi.

"Tafakkur" jurnali bosh muharriri Erkin A'zam "Tanqid o'ng'ay yo'l, tahlil esa ... nomli maqolasida shunday fikr bildiradi: " Xo'sh matbutda tanqid kerakmi? Kerak suv bilan havodek. Quruq maqto'v, hamdu sano hech kimni qiziqitirmaydi... Nazarimda bizni hamon kechagi zamonning an'analari, "o'tmish sarqitlari" ta'qib etmoqda.

... Biz huv bir zamonlardagidek, tanqidning ortidan keladigan "orgvivod" lardan qo'rqamiz. Biz jamoatchilikning salbiy fikri yoki nafratiga duchor bo'lishdan emas, ko'pincha mansabimizdan ajralib qolishdan qo'rqamiz. Biz tanqidning noholis, g'arazli bo'lishiga o'rganib qolganmiz – hamma balo shunda!

... Gazetada tanqidiy maqola bosilgan kuni bosh muharrir dori ichib o'tiradi. Chunki har tarafdin tahdid, do'q-po'pisa, pastdanu yuqoridan telefonlar. Holbuki, bunday munosabat, ya'ni qo'ng'iroq bo'lsa, faqat biz tashkilotdan – sud maxkamasidan bo'lishi kerak. Ammo bunga talay qovun pishig'i borgan o'xshaydi.¹

Faqatgina oddiy xabar, axborotlardan, maqto'vlardan iborat matbuot nashrlari muhlislar uchun unchalik qiziqarli emas, albatta.

¹ Eng sodiq do'st, eng zarur hamroh. – T.: O'zbekiston, 1998. B.39 – 41

Prezidentimiz Islom Karimovning suyunib qaytganso'zlarini eslaylik: “Nega gazetalar bunchalar sayoz, jim-jit”, go'yo hammayoqda “olam guliston” dek? Nega matbuotimizda o'tkir feletonlar yozilmaydi? Nega noqobil ishbilarmonlar, poraxo'r ishbilarmonlar fosh qilinmaydi? Axir ular adabiy asarlarda, matbuotda, matbuot sahifasida, televideniya o'z qiyshiq basharasini ko'rsa, xalqining nafratoga duchor bo'lsa, ibrat bo'lmaydimi? ¹

Prezidentimizning alohida e'tibori va yaratib berilgan huquqiy kafolatlar, imkoniyatlar tufayli matbuot bugun jamiyatdagi qora illatlarga qarshi kurasha oluvchi kuchga aylandi. Matbuotning vazifasi tanqitdan iborat emas, shuningdek, tanqiddan maqsad o'ch olish, yer bilan yakson qilish, badnom etish ham emas. Matbuot haqqoniy dalillar negizida, hayotdagi bosh go'yalar, asosiy yo'nalishlar tahlili vositasida jamoatchilik fikrini shakillantirishga xizmat qilishi kerak.

Prezidentimizning matbuot to'grisidagi bildirgan yuqoridagi fikrlariga qariyb 10 yil bo'ldi. Bugun respublikamiz nashrlarida prezidentimiz ta'kitlaganlaridek, jamiyatning haqiqat ko'zgusi bo'luvchi materiallar paydo bo'la boshladi. Voqea-hodisalarning erkin munosabat bildirishi, tanqidiy, chuqur tahliliy materiallar chop etish orqali “Xalq so'zi”, “Правда Востока”, “O'zbekiston ovozi”, “Hurriyat” kabi gazetalar xalq e'tiborini tortmoqda.

Demak, gazeta xalq dardini, muammolarini yorita olsa, farovon turmush tarzi va taraqqiyot yo'liga g'ov bo'layotgan illatlarni fosh eta olsa, kishilar uchun eng kerakli axborotni yetkaza olsa, xalqning ishonchli minbariga aylana olsa, bu uning o'z vazifasini a'lo darajada bajarayotganini bildiradi va bundat gazeta doimo xalq e'tibori va ardog'ida bo'ladi.

Buning amalda oshishida esa albatta, gazeta tahririyati xodimlari, materiallarining ma'no-mazmuni, sifat va saviyasiga doimiy mas'ul bo'lgan muharrirlarning o'rni va roli kattadir.

Bular barchasi muharrir mas'uliyatining huquqiy-ahloqiy, ijtimoiy jihatlaridir. Endi bevosita matbuot materiallarini tahlil va tahrir etishda muharrir bajarishi lozim bo'lgan omillar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

¹ Eng sodiq do'st, eng zarur hamroh. – T.: O'zbekiston, 1998.B. 4

Muharrir tahriri deganda ko'pchilik materialning til va uslub jihatdan nuqsonlarini bartaraf etishno tushunishadi. Ammo tahrir buning o'zigina emas.

A.E. Mil'chinning "Metodika redaktirovaniya testa" (Matinni tahrir qilish uslubi) nomli kitobining "Muharrirlik nima?" deb nomlangan bo'limida shunday fikrlar beriladi:

"Agar muharrirlik faqatgina xatolarni tuzatishdan iborat bo'lsa, telba teskari lekin gramatik jihatdan to'g'ri bo'lgan maqola hayotda o'z o'rnini topib ketaverar ekanda?¹ Demak, biz bir hulosaga kelishimiz mumkun: muharrirning ishi xatosiz, ammo ma'nosiz maqolalar chiqarishda emas, undan anchq yuqoriroq vazifalar".

Jumladan, Mil'chin muharrirning tahririga quyidagi misolni keltirib o'tadi:

Charlz Darvin odam maynundan paydo bo'lgan degan g'oyasini ilgari surgan. Bundan keyin butun olam bu gap to'g'riligiga amin bo'lgan. Keyingi kashfiyotlar esa bu boradagi bilimlarni chuqurlashtirgan.

Ko'rib turganingizdek, matn juda zerikarli. Endi esa muharrir tahriridan o'tgan, ya'ni muharrir tomonidan o'zgartirilgan parchani o'qiymiz.

Ingliz olimi Charlz Darvin odamlar bilan maymunlarni umumiy ajdoddan paydo bo'lgan dagan go'yani ilgari surgan. Ko'p yillardan keyin butun dunyo olimlari teoriyaning haqiqatga mosligini tan olishgan va bu boradagi bilimlarni kashfiyotlari orqali chuqurlashtirishgan.

Ko'rinib turiptiki, ikkinchi, ya'ni to'g'rolangan holdagi ma'lumotlar aniq, ravshan va haqiqatga mosroq, eng asosiysi qiziqarli.

Bir qarashda muharrir o'z fikrlarini qo'shib qo'yganga o'xshaydi. Lekin, e'tibor bilan kuzatib bilish mumkunki, maqola faqatgini to'ldirilgan yoki muallif fikriga zid emas. Bu yerda muallif oddiy biologiyadan bilimi yo'qligini namoyon etgan: Odamlar maymundan tarqalgan. Aslida, ularning ajdodi bir bo'lgan, xolos. "Keyin butun olam amin bo'lgan" deyiladi. Aniqrog'i esa butun dunyo olimlari buni tan olishgan. Chunki oddiy xalq bunga unchalik ishonmagan.

Bunday matnlar albatta, muharrir qralashuvini talab etadi. O'quvchilar matbuot sahifalarida tahrir qilingan, kanchilik va nuqsonlari tuzatilgan matnlarni

¹Мильчин А.Э Методика редактирования текста.-Москва: Книга, 1980.С.5

ko'rishadi. Bu yerda muharrir (muharrir deganda bu faqat shu lavozim egasi emas, balki tahrir bilan shug'ullanuvchi xodimni nazarda tutamiz) ning og'ir va mas'uliyatli, mashaqqatli mehnatini hamma ham bilavermaydi. Maqola va boshqa bir janirdagi material yaxshi yozilgan, nuqsondan holi va mavzu yorqin aks etgan bo'lsa, bu yerda faqatgini muallifga taqsin aytiladi. Holbuki o'sha matinning deyarli 70 foizini muharrir "yozgan" bo'lishi ham mumkun.

Yana Umarali Normatovning maqolasiga murojaat qilaylik. Unda shunday fikrlar bor:

"Tahririyatlarga kirsangiz, hamisha muharrirlar stoli ustida yotgan qolyozmalarga ko'zingiz tushadi. Goho muharrir tahlil etgan tekstlarni kozdan kechirib hayratdan yoqa ushlaysizUlarda qalam tegmagan birorta ham sog'jumlani topa olmaysiz, matn deyarli boshdan-oyoq qayta yozib chiqilgan bo'ladi. Muharrirning tahririga also e'tiroz bildira olmaysiz, uning vijdonan qilgan mehnatiga, mahoratiga tan berasiz. Ammo bunday yo'lni ham butunlay oqalab bo'lmaydi. Muharrirning vazifasi tahrir mashaqqatlarini batamom o'z zimmasiga olishdan iborat emas, uni bu mashaqqatli mehnatga olishi kerak " .

Ammo bilamizki, ba'zan mualliflar bilan ham mualliflar ustida ishlash, mualliflarni ishlatish muharrir uchun bevosita o'sha matinni tahrir qilishdan ko'ra qiyinroq kechadi, ko'p vaqtni oladi. Shunga kora ayrim muharrirlar ham matinni qayta tiklashdan ko'ra, uni o'zlari yozip qo'yishni onson sanaydilar. Bu yo'lni ham butunlay oqlab bo'lmaydi.

Muharrir imkoni boricha qo'lyozmalar matnlar ustida ishlayotganda jiddiy nuqson va kamchiliklarni muallifning o'ziga ham bildirishi , ko'rsatishi lozim. Toki bu unga saboq bo'lsin. Leyingi safar ushbu xatolarni qaytarmaslikka, o'sh kamchilikka yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Muallif tahririyatda endigina ish boshlagan xodim, muxbir, jurnalistika fakul'tetida tahsil olayotgan talaba yoki haskor jurnalist, yozuvchi, ijodkor bo'lishi mumkun. Muharrirning ko'rsatmalari, maslahatlari uning qalami charhlanishiga xizmat qilishi, kelgusi ijodida muhim mezon bo'lishi mumkun.

Ma'lumki, matbuot doimo xalq bilan hamnafas, jamiyat va davlat o'rtasida o'ziga hos ko'prik hamdir, ma'lum ma'noda haqiqat va adolat minbaridir. Shu

sababli ham juda ko'pchilik fuqorolar gazetaga murojaat qiladilar. Bu murojaatlarda shaxsiy, oilaviy munosabatlardan tortib mamlakat miqyisidagi muammolargaqcha aks etgan bo'ladi. Shuningdek, xatlarda hozirgi kunning muhim voqealari, gazetada bosilgan jiddiy tahliliy-tanqidiy materiallar bilan bog'liq bo'lgan fikr-mulohazalar ham bayon etilgan bo'ladi.

Har bir fuqoro katta xalqning bir qismi, uzviy bo'lagi. Ularning murojaatiga befarq qarashi mukin emas.

Kishilar murojaatlarining har birini gazetada yoritaverishning iloji yo'q albatta. Ba'zi xatlardan faqat obzor sifatida foydalaniladi. Gazetada chop etish uchun eng harakterlisi, ahamiyatlisi tanlab olinadi. Ularda aks etgan mavzuning nechog'lik asosli ekanligi tekshirib ko'riladi. Shundan so'ng ko'rib chiqish va hal etish uchun tegishli tashkilotlarga jo'natiladi. Yoki matbuot sahifasida yoritiladi. Tnaqidiy-tahliliy, muammo;ar yoritilgan xatlar bu masalaga o'z munosabatlarini bildirishlari, javob berishlari uchun tegishli vazirlik yoki hokimliklarga, mutasaddi tashkilotlarga jo'natiladi. Matbuot nashrlari yoki tashkilotlari o'rtasidagi bunday aloqa albatta, mutasaddi rahbarlarning matbuot va xalq oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

Fuqorolar murojaatiga e'tibor, gazeta sahifalarida ulardan imkon qadar ko'proq foydalanish gazeta o'quvchilarini ko'paytiradi, uni ommabop qiladi. Chunki bu gazetaning xalqchilligini belgilaydi. Gazeta aralashuvi tufayli muammolarning o'z yechimini topishi omma o'rtasida xaq so'zga bo'lgan ishonchni ham oshiradi.

Gazetaga kelgan maktublar tahririyatlarda tashkil etilgan "Gazetxonlar bilan aloqalar " bo'limiga, bunday bo'kim mavjud bo'lmasa to'gridan-to'g'ri bosh muharrir yoki masul hodimlar qoliga kelib tushadi. Xatlarni ikki guruhga ajratish mumkun. Birinchisi, jurnalistika va adabiy janirga taaluqli ijod turlari, ikkinchisini esa fuqorolar murojaatlari tashkil etadi. Xatlar ro'yhatdan o'tkazilib, bo'lim boshlig'i, bosh muharrir tanishib chiqqach ular mazmun mohiyatiga ko'ra ajratiladi. Mas'ul xodimlar gazeta talabidan kelib chiqib, xat mazmunini buzmagani, matinning asosiy maqsadini buzmagani holda qisqartirishi, tahrir etishi, dalil va raqamlarni tekshirib, nashirga tayyorlashi mumkun. Xatlar ma'lum bir

ijodiy jarayondan o'tgach , uni chop etish yoki etmaslik masalasi muharrir tomonidan yoki tahrir hay'ati muhokamasi orqali hal etiladi.

2002 yil 13-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Fuqorolarni murojaatlari to'g'risida " gi yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasida belgilab qo'yilganidek, fuqorolarning matbuot, umuman OAV tahririyatiga kelib tushgan murojaatlari qonunda nazarda tutilgan tartibda va muddatda ko'rib chiqilishi lozim.

Muharrir mas'uliyati nafaqat matnlarni saralash, tahrir va tahlil etishda, balki gazetaning sifati talab darajasida bo'lishi uchun undagi rukmlar, sarlavhalar, suratlarni ham nazardan chetda qoldirmasligi ham namoyon bo'ladi.

Gazeta , jurnal materiallariga mos rukn tanlash kam matbuot xodimlaridan etibor va zehn talab etadi. Chunki, aniq va ravshan, to'g'ri tanlangan rukn maqolaning mohiyatini ko'rsatib, o'quvchi diqqatini yoritilayotgan mavzuga qaratadi, matn mazmunini chuqurroq ochib berish uchun sarkavhaga ko'makdosh bo'ladi, huddi sarlavha kabi rukn ham o'quvchiga estetik ruh baxsh etadi, zavqlantiradi. Gazetxonga kerak bo'lgan mavzuni qiynalmasdan topish imkoniyatini beradi.

Sarlavhalarga e'tibor berish to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, bu ham muhim jihat bo'lib, "sarlavha tanlash va qo'llash muhim mahorat talab etadi. Uy ostonadan gazeta sarlavhadan boshlanadi. Sarlavhani gazeta va jurnalning yuzi ko'zgusi deyish mumkin " ¹ , deyiladi filologiya fanlari nomzodi Abduvali Abdusaidovning "Jurnalist mahorati " sarlavhali maqolasida.

Jurnalistika ilmida, sarlavha-yarim maqola, muallifning o'z o'quvchisiga aytgan birinchi so'zi aynan sarlavhadir degan yozilmagan qoidalar mavjud. Haqiqatdan ham sarlavha "matn uchun shunchaki "ism" bo'lib qolmay, uning mohiyati, mazmuni, maqsadi, vazifasi bilan uzviy aloqador bo'lgan muhim tadrijiy qismidir " ².

Shuningdek, gazeta sahifalarini suratlar bilan bezash masalasi ham etibortilab jarayondir. To'g'ri , bu masala bilan asosan sahifalovchi – dizaynerlar , mas'ul hodimlar shug'ullanadilar, ammo suratlar gazeta sahifalarini bezabgina qolmay,

¹ Abdusayidov A. Jurnalist mahorati// O'zbekiston matbuoti -2003. 3-son.

² Abdusattorov R., Muhsinov A. Sarlavha tanlashga e'tibor// O'zbekiston matbuoti -2007. 1-son.

gazetxonlarga jamiyat hayoti haqida, voqea-hodisalar haqida yorqin va haqqoniy hikoya qilib berar ekan, bu masala ham muharrir nazoratidan chetda qolmasligi lozim.

Gazetxonlar gazetaning yangi, bosmaxona bo'yog'I hidi kelib turgan sahifalarini ochar ekan, avvalo, suratlar uning e'tiborini jalb etadi. Hozirgi zamon gazetasi esa suratsiz chiqishi mumkun emas. Shu bois ham tahririyat fotomuhbirlariga yoki rassomiga endilikda adabiy materiallar: feleton, lorreslondentsiya, maqola va shu kabilarning muallifiga qo'yilgan talablardan kam talab qo'yilmayotganligi bejiz emas.

Shu narsani esada tutish kerakki, gazeta uchun har qanday matnni axborot, lavha yoki maqola qanday muhim bo'lsa, surat, rasm va portret ham huddi shunday muhimdir. Shu boisdan, suratga va gazetani badiiy jihatdan bezashga matnga qo'yilgani kabi yuksak talablar qo'yilishi kerak.

Ommaviy axborot vositalarida reklamaga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Shu bos ham OAVda, hususan matbuotda reklamalrning berilishi, ularning tik va uslubi, o'rni qanday bo'lishi kerak, degan masala ham muharrir va gazeta xodimlarining diqqat e'tiboridan chetda qolmasligi kerak.

Bozor iqtisodiyoti qonun-qoidolari, mablag'ni shakillantirish masalalari yuzasidan OAV da, matbuot nashirlari reklamalar va e'lonlar ko'payib bormoqda. Bu zamon, davr talabi. Lekin ba'zida reklamaga me'yordan ortiq o'rin ajratilayotganligi mushtariylar mafaati bilan hisoblashmayotganliklarini bildiradi. Axir o'quvchi e'lon va reklama o'qish uchun obuna bo'lmaydiku?

O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Asliddin Boliyev "Shakl va mazmun rang – barangligi" sarlavhali maqolasida bu boradagi shunday fikrlarni bildirib o'tadi.

"... Hayron qolasan kishi ba'zan to'rt sahifalik gazetaning 2-2,05 sahifasi e'lon bilan to'ldiriladi. Bayram arafasida-ku aytmay ham qo'yaverasiz, bayram haqidagi materiallar qolib, u yoki bu firmaning yarim-bir sahifali tabriklari chop etiladi".¹

¹ Eng zarur do'st, eng zarur hamroh. – T.: O'zbekiston, 1998. B. 46

Mablag' masalasi yuzasidan reklamalarning, bayram tabriklarining berilishini qoralab bo'lmaydi. Ayniqsa, ayyom kunlarida yurtdoshlarga bildirilgan ezgu tilaklar aks etgan tabrik va qutlovlarni nafaqat 4-5, o'n sahifada berish ham kam. Kekin buning uchun gazetaning sahifalari bundan 4-5 barobar ko'proq bo'lishi lozim. Toki, kerakli, dolzarb axborotlarni berishga, muhim mavzularni yoritishga ham o'rin yetarli bo'lsin.

Shu bilan birga reklamalar matnining til va uslubiga ham alohida ahamiyat berish lozim. Reklamalar matni tik va uslub jihatdan ravon, soda, londa hmda jozibali bo'lish lozim.

“ OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti” o'quv qo'llanmasida shunday deyiladi:

“Reklama matnini tuzishda so'z tanlashga alohida e'tibor berish va bir qator jihatlarni hisobga olish talab etiladi... Reklama matnlariga hos, ko'p uchraydigan nuqsonlardan biri- ko'p so'zlilik. Bunday nuqsonga asosiy sabab, matinni qisqartira olmaslik yoki xohlamaslikdir. Bunday tahrirtalab matnlar shubhasiz, o'quvchida loqaytlik uyg'otadi, matn esa oxirgacha o'qib chiqilmaydi”.¹

Muharrirlikning mas'uliyati va zalvorli yuki haqida so'z yuritar ekanmiz, bu vazifani a'lo darajada bajara olgan va hamkasblari, zamondoshlarining cheksiz hurmat va ardog'iga sazovor bo'lgan shaxslar tajribasi boshqalar uchun ibrat bo'lishi lozimligi haqida ham aytib o'tmohchimiz.

2003-yil “Ma'naviyat” nashriyotida chop etilgan “Asqad Muhtor zamondoshlari xotirasida” kitobida (to'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Abdulla A'zamov, Nabijon Boqiy) O'zbekiston xalq yozuvchisi, serqirra ijodkor Asqad muxtorning yetuk muharrir sifatidagi faoliyati haqida zamondoshlarining hotirasi beriladi.

“ Asqad Muxtor bosiladigan asarlarni hafsala bilan tahrir qilardi. Qo'lyozma egalari bundan ranjimasdi. Tuzatilgan sahifalarni ko'rib, ma'qul , rahmat, deb minnatdorchilik bildirardi”.

Said Ahmad

¹ Toxirov Z .T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti. – T. : Universitet, 2006. B.16

“ Asqad Muxtorning muharrir sifatida bosh talabi – barchaga baravar munosabatda bo`lish, barchaga baravar mezon qo`yishi ekan. Uning uchun xalq yozuvchisi bilan universitet talabasining farqi yo`q ekan. Asar yaxshi bo`lsa, e`lon qilinadi, bo`lmasa – uzr... keyinchalik o`zim ham shu jurnalga rahbar bo`lib qolganimga Asqad akaga hech qachon oson bo`lmaganini, yaxshi asardan ko`ra yomoni ko`proq yozilishini, yaxshi yozuvchidan ko`ra iste`dodsiz yozuvchilar yuzsizroq va ayovsizroq bo`lishni angladim.”

O`tkir Hoshimov ¹

O`z ishining mohir ustasi bo`lgan, talabchan va haqiqatparvar muharrirning faoliyat yo`li, tajribasi izdoshlariga va hamkasblariga ibrat maktabi bo`lib qoladi.

Matbuot materialarining tahlili va tahriri haqida so`z borganda beixtiyor Prezident Islom Karimovning quyidagi so`zlar yodga tushadi:

“Hozirgi vaqtda yon – atrofimizda o`zini oqlamagan va umrini o`tab bo`lgan eski tizim va mafkuralarni qumsashga bo`lgan urinishlar tobora tarqalib va kuchayib borayotgan bir paytda bunday kuchlarning qarmog`iga tushib qolmaslik uchun axborot sohasida yetti o`lchab bir kesish , halqimiz , ayniqsa, yoshlarimizning ko`zini keng ochib berish , ularni irodasini mustahkamlash, iymoni baquvvat insonlar etib tarbiyalashda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining o`rni va mas`uliyati tobora ortib bormoqda... ”²

¹ Asqad Muxtor – journalist va muharrir// O`zbekiston matbuoti – 2003. 6-son.

² Islom Karimov. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // Xalq so`zi, 2014 yil 28 iyun. 125-son.

Xulosa

Matbuot, noshirlik faoliyatida muharrir termini tez – tez uchrab turadi va albatta tahrir qiluvchi ma`nosida tushuniladi. Lekin muharrirlarning ham turlari mavjud. Masalan: kitob muharriri, texnik muharrir, badiiy muharrir, gazeta muharriri. Ular har birining o`z vazifasi bor. Xususan kitob muharriri matn tahriri bilan shug`ullanadi, texnik muharrir matnni joylashtirish tartibini belgilaydi, badiiy muharrir asarga ishlangan badiiy tasvirlar bo`yicha amallarni bajaradi, gazeta muharriri deganda asosan lavozimdor, ya`ni bosh muharrir ham anglashiladi. Biz mazkur ishimizda matn ustida ishlovchi, adabiy tahrir bilan shug`ullanuvchi muharrir mahorati asoslarini ko`rib chiqishga harakat qildik.

Muharrir so`zi arabcha so`z bo`lib “harara” so`zidan yasalgan. “Harara” so`zi esa “qutqarmoq”, “ozod qilmoq” ma`no ifodalarini beradi. Tahrir so`zi ham ayni mana shu “harara” so`zidan yasalgan, faoliyat turi madaniy – ijtimoiy ishlar va adabiy – ijodiy amaliyot sohasi sifatida hozirgi zamon noshirlik ishi va publisistikada keng tarqalgan.¹

Matbuotda faoliyat yurituvchi muharrirlar gazeta, jurnal chiqarishda ishtirok etuvchilar orasida o`ziga xos o`rinni egallaydi. Ularning mehnati alohida mahorat mas`uliyat va malakani talab etadi. Zero matn mualliflari muharrir bo`la olmaganidek, matn mualliflari barchasi ham muharrirlik ishining mohiyatidan habardor bo`lavermaydi. Shunga ko`ra matn borki u tahrirga muhtojdir. Muharrir matn ustida ishlar ekan ko`p jihatlarga e`tibor qaratishi kerak. Avvalo matn adabiy til me`yorlariga rioya qilingan holda yozilgan bo`lishi, material publisistikadagi qaysi janrga taaluqli ekanligi, janriy xususiyatiga ko`ra uslub to`g`ri tanlanganligi va hokozolardan tashqari gazeta yoki jurnalning ixtisoslashganligi, kimlarga mo`ljallanganligi tahririyatning moddiy ma`naviy manfaatlari maqsadi va boshqalarga ham alohida e`tibor qaratishi talab etiladi. Albata bunday talablarning barchasi muharrirdan yuksak bilim ko`nikma va malaka talab qiladi. Ana shu talablarga muharrir qay darajada javob berishligiga ko`ra uning malakasi baholanadi. Adabiy tahrir masalasiga bag`ishlangan ilmiy asarlarda muharrirga

¹ Qarang: Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. Darslik.-T.: Tafakkur-Bo`stoni, Cho`lpon NNMIU, 2012. B.7.

asarning birinchi o'quvchisi, uni baholovchi deya ta'rif beriladi. Darhaqiqat, muharrir asarni birinchi o'quvchisi sifatida muallifning birinchi yordamchisiga ham aylanadi. U haqda o'z mulohazasini bildiruvchi taqrizchi va xatto tanqidchiga ham aylanadi. Muharrir asarning nashr yo'lini belgilaydi, nashrni yo'naltiradi, ko'p jihatdan uning taqdirini hal etadi. Muharrir bevosita o'z vakolati doirasidagi vazifani bajaribgina qolmaydi balki nashr jarayonida ishtirok etuvchi boshqa mutahassislar – texnik muharrir, musahhih, dizaynerlar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi ular ishiga muharrirlik nuqtai nazaridan aralashadi va nashrning ko'ngildagidek chiqishini ta'minlaydi. Nashrdan chiqqan matbuot mahsuloti g'oyaviy – siyosiy, ilmiy, ma'rifiy mazmuniga ko'ra o'z auditoriyasini to'liq qanoatlantirishida muharrirning mas'uliyati, mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi jahon axborot maydonidagi globallashuv sharoitida muharrir milliy mafkura tamoillariga amal qilishi lozim. Har bir asar umumxalq manfaatlarini aks ettirishi mustaqillik g'oyalariga kuchli qonunchilik davlatidan fuqorolik jamiyatiga o'tish tamoyillariga, davlat yuritayotgan oqilona xalqparvar siyosatga muvofiq bo'lishini ta'minlashi talab etiladi.

Matbuot materiallarining har tomonlama ham shaklan, ham mazmunan, ham bezatilish jihatidan sifatli bo'lishi uchun birinch navbatta muharrir javobgar hisoblanadi. Shunga ko'ra muharrir, ya'ni matn tahriri bilan shug'ullanuvchi matbuot nashri dunyo yuzini ko'rishida butun jamoa nimaiki qilishi lozim bo'lsa barchasida muharrirning qaysidur darajada ishtiroki bo'ladi.

Bugungi kunga kelib tahrir ishiga murakkab texnika va texnologiya keng joriy etilmoqda. Texnika yordamida matnni tahrir qilish, unga qo'shimchalar kiritish, qisqartirish, o'rnini almashtirish xullas bir so'z bilan aytganda tahrir qilish imkoni mavjud.

Tabiiyki muharrir matn ustida ishlashning butun mobaynida nihoyatda faol, hushyor, diqqat e'tiborini bir yerga jamlagan bo'lishi kerak. U matnni qanday idrok etishligini nazorat qila olishi, muallif mulohazasidagi o'ziga xoslikni baholay bilishi kerak. Tajribali muharrirlar tahrir ishining eng qiyin joyi matnni o'zgartirishni amalgam oshirish deb hisoblaydilar. Chunki, o'zgartirishlar matnga

sun'iy ravishda kiritilgan yod unsurdek begona bo'lib qolmasligi kerak balki, muallif matnining tarkibiy qismi sifatiga aylanishi kerak.

Biz mavzuni tadqiq etar ekanmiz yuqorida bayon etgan sifatlarga ega bo'lish uchun muharirdan yuksak mahorat talab etilishiga amin bo'ldik va tadqiqotimiz natijalariga ko'ra shunday xulosaga keldik. Quyidagilar muharrir mahoratining asosini tashkil etadi deb bimalol aytish mumkin:

1. Matn tahriri bilan shug'ullanuvchi muttaxis muharrir avvalo adabiy til me'yorlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Buning uchun adabiy tildagi fanetika xususan, orfografiy, orfoepiya, punktuatsiya va boshqa nutqiy hodisalar bo'yicha chuqur bilim olgan bo'lishi kerak. Leksikalogiya, ya'ni so'z haqidagi ta'limot bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Bunda u bir ma'noli ko'p ma'noli so'zlar, shuningdek sinonim, antonim, amonimlar haqida, shuningdek so'z ma'nolari – tub va ko'chma ma'nolar, metafra, metonimiya, sinegdoxa, ironiya, personifikatsiya va b, bulardan foydalanishni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Morfologiya-qo'shimchalar ularning nutqdagi vazifasi, sintekses – jumlarlar tuzilishi turlari gap bo'laklari ulardagi inversiya xodisasi va boshqalar haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi lozim.
2. Adabiy tildagi uslublar haqida nazariy bilimni puxta egallashi zarur. Chunki adabiy til uslublari va uslublararo o'ziga xosliklarni o'zlashtirmay turib sifatli tahrirni amalgam oshirib bo'lmaydi. Matbuot muharriri gazeta jurnal sahifasida ketayotgan materiallar gazeta va jurnallarning maqsad vazifasi, mohiyati va ixtisoslashganligiag ko'ra uning uslubini belgilay olishlari zarur. Xususan, matbuotda amal qiladigan asosiy uch uslubdan – ommaviy – siyosiy, ilmiy – ommabop, badiiy publisistik uslubdan yaxshi xabardor bo'lish kerak.
3. Matnni tahrir qilishga kirishishdan avval uni mantiqiy tahlil qilish kerak bo'ladi. Buning uchun esa muharrir adabiy tahrirning mantiqiy qonunlarini yaxshi bilishi kerak. Bundan tashqari u asar kompazitsiyasini ham asarda qo'llaniladigan asos materiallarni, asarning janriy xususiyatlarini ham tahlil qila olishi kerak.

4. Yuqoridagi aytilganlarga asoslanib adabiy tahrirni amalgam oshirish bo'yicha chuqur ko'nikma va malakaga ega bo'lish.

Demak, matbuot muharriri, umuman matn tahriri bilan shug'ullanuvchi barcha muttahaslar komil tahrirchi bo'lishlari uchun yuqoridagi to'rt bosqichdan mukammal o'tgan bo'lishlari kerak. Bu to'rt bosqichning birinchisi adabiy til, adabiy til uslubiyati, matn mantiqiy tahlili va adabiy tahrir deb ataladi va mazkur bosqichlarda o'zlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malaka muharrir mahoratining asosini tashkil etadi. Shu bosqichlardan muvofaqqiyatli o'ta olganlarga komil tahrirchi darajasiga erisha oladi.

Yuqoridagi bayon etilganlarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Matbuot muharriri o'zi faoliyat yuritayotgan nashr qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, mazkur sohaga oid asarlar matnini taqhrir qilishga ixtisoslashuvi kerak.
2. Gazeta partiyaviy bo'lsa, muharrir ommaviy – siyosiy, rasmiy – idoraviy uslubdan yaxshi xabardor bo'lishi kerak.
3. Gazeta yoki jurnal adabiy – badiiy bo'lsa, badiiy publisistik uslubni yaxshi bilishi lozim.
4. Gazeta yoki jurnal jamiyat a'zolarining muayyan qatlamlariga, masalan , yoshlarga, ayollarga mo'ljallangan bo'lsa, ilmiy ommabop, ommaviy – siyosiy uslubni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.
5. Gazeta yoki jurnal muayyan sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, masalan, huquq, iqtisod, tibbiyot va b, muharrir ilmiy ommabop uslub va sohaga oid terminlardan yaxshi xabardor bo'lishi kerak.
6. Jurnal badiiy sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, badiiy uslubni chuqur egallagan bo'lishi kerak.
7. Jurnal ilmiy, ilmni muayyan sohasiga ixtisoslashgan bo'lsa, ilmiy uslubni va o'sha sohaga oid terminalogiyanini yaxshi bilishi talab etiladi.
8. Gazeta jurnal san'at sohalariga ixtisoslashgan bo'lsa, ilmiy, ilmiy-uslubiy uslubni va har bir soha terminalogiyasi bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak.

ADABIYOT

I. Rahbariy adabiyot

- 1.1 O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O`qituvchi, 2005.
- 1.2 Noshirlik faoliyati to`g`isida. O`zbekiston Respublikasining qonuni.-T.: O`zbekiston, 1998
- 1.3 Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengil kuch. – T.: Ma`naviyat, 2008.
- 1.4 Karimov I. A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // Xalq so`zi. 2014 yil 28 iyun.
- 1.5 Karimov I. A. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar-T.: O`zbekiston, 2000
- 1.6 Karimov I. A. bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir.- T.: O`zbekiston 2005
- 1.7 Karimov I. A. Eng asosiy mezon- hayot haqiqatini aks ettirish. - T.: O`zbekiston,2009
- 1.8 Eng sodiq do`st, eng zarur hamroh. To`rtinchi hokimiyat.-T.: O`zbekiston.1998

II. Asosiy adabiyot

- 2.1 Toxirov Z.T. Adabiy tahrir. – T.: Tafakkur – Bo`stoni, 2012
- 2.2 Toshaliyev I. Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari. O`quv qo`llanma.-T.: universitet, 1999.
- 2.3 Toxirov Z.T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti.-T.: Universitet,2006.
- 2.4 Jamoa. Hozirgi zamon jurnalistikasi.-T.: Aloqachi, 2008.
- 2.5 Qozoqboyev T. Jurnalistika asoslari.-T.: Musiqqa,2007
- 2.6 Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. – T.: Zar qalam, 2006.

III. Qo`shimcha adabiyot

- 3.1 Toxirov. Z.T. Jurnalistika terminlari qisqacha izohli lug`ati. – T .: Zar qalam. 2004.
- 3.2 Lug`at jurnalistika, reklama, public relations, ma`lumotnoma ,1700 ta atama. -T.: Zar qalam 2003.

IV. Ruscha adabiyot

- 4.1 Сикорский А.М.Теория и практика редактирования. – М.: Высшая школа, 1980.
- 4.2 Мильчин А.Э Методика редактирования текста.- М.: Книга, 1980
- 4.3 Сикорский А.М.Редактирование отдельных видов литературы. – М.: Высшая школа, 1973.
- 4.4 Беззубов А.Н. Введение в литературное редактирование.- Санкт-Петербург,1997.

V. Ilmiy maqolalar

- 5.1 Toxirov. Z.T. Kitob muharri//O`zbekiston matbuoti, 2010. 4 – son..- BB-50-51.
- 5.2 Toxirov. Z.T. Mirzaeva N. Tilga e`tibor – elga e`tibor // O`zbekiston matbuoti, 2010. 1- son.-BB.- 28-29.
- 5.3 Тахиров. З.Т.Специализации нет, результата нет // Бизнес – вестник Востока, 2009, 15 декабрь.№ 99.-8-b.
- 5.4 Toxirov. Z. T. Oliy jurnalistika kurslarida ixtisoslashuv masalalari mavzuida II ilmiy – amaliy seminar materiallari // Matbuotda til va uslub masalalari. G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. -T.: - 2013.-BB- 121-127.